

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
ЖУРНАЛИСТИКА ФАКУЛЬТЕТИ
“УСЛУБИЯТ, ТАҲРИР ВА ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКА”
КАФЕДРАСИ**

ОЛИМОВА Ш.

ГАЗЕТАДА ТИЛ ВА УСЛУБ МАСАЛАЛАРИ

5320100 – Журналистика

Бакалавр даражасини олиш учун ёзилган

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ

Илмий раҳбар:

доц. Тошмухаммедова Л.И

Тошкент-2014

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЖУРНАЛИСТИКА ФАКУЛЬТЕТИ
“УСЛУБИЯТ, ТАҲРИР ВА ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКА”
КАФЕДРАСИ**

ОЛИМОВА Ш

ГАЗЕТАДА ТИЛ ВА УСЛУБ МАСАЛАЛАРИ

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ

ДАК қарори: ОЛИМОВА Ш.нинг

Битирув иши “____” га баҳолансин

“____” _____ 2014-йил

ДАК раиси:_____

ДАК котибаси:_____

Тошкент-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-8
--------------------	------------

I BOB. MATBUOTDA TIL VA USLUB MASALALARI

1.1. Gazeta tilining umumiy tavsifi	9-18
1.2. Gazeta uslubining o'ziga xos jihatlari.....	19-29

II BOB. “HURRIYAT” GAZETASINING TILI VA USLUBI

2.1. “Hurriyat” gazetasining janriy - uslubiy xususiyatlari.	30-39
2.2. “Hurriyat” gazetasining lisoniy o'ziga xosligi.....	40-50

XULOSA	51-55
---------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	56-58
--	--------------

ILOVA.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Gazeta nutqi, bu avvalo, ta'sir etishga qaratilgan nutq, shuning uchun auditoriya manfaatlari va maqsadga muvofiqlik hisobga olinadi. Agar gazeta partiyaviy bo'lsa, tilining ijtimoiy- siyosiy baholash mazmuni lo'nda, keskin bo'lishi kerak. Agar gazeta madaniy- ma'rifiy bo'lsa, uning tili badiiy didaktik lisoniy vositalar asosida shakllanadi. Gazetaning ixtisosligiga qarab uning tili belgilanadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi davr matbuotida ixtisoslashuv kuchayib borgan sari tili va uslubida o'zgarishlar, yangiliklar kirib kelmoqda. Ularni o'rganish, gazeta materiallari misolida tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda matbuot nashrlaridagi til va uslub bilan bog'liq xatoliklar ko'plab uchrayotganligini, pala-partishlilik, qorishqlikka ko'p yo'l qo'yilayotganligini hisobga olgan holda bu mavzu doirasida ilmiy izlanish olib borish bugunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Matbuotni jamiyatning shoh tomirlariga qiyoslashadi. Darhaqiqat, shunday. U jamiyat taraqqiyoti, aholining siyosiy- ma'naviy qarashlarini bevosita aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z chiqishlarining birida shunday ta'kidlagan edi: "Hozirgi davrda xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyatgina yengilmas kuchga aylanib, o'z kelajagini o'z qo'li va aql- zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi..."¹.

Zero, bugungi axborot globallashuvi davrida jurnalistlar va barcha matbuot xodimlari oldiga qo'yilayotgan vazifa va talablar ko'lami ancha keng. Bu esa o'z navbatida ko'proq izlanish, o'qish va o'rganishni taqozo etadi.

Zamonaviy jamiyatda turli institutlar – siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, himoya qiluvchi, ma'rifiy va boshqa tizimlar faoliyat ko'rsatadi. OAV shunday ijtimoiy institutlardan biridir.

Bosma OAV odamlarning muloqotga ehtiyojlarini qondirishi vositasi sifatida paydo bo'lgan. Bosma davriy nashr eng avvalo, gazeta kishilarning shaxslararo va umumiy muloqotining samarali vositasi hisoblanadi. U fuqaroga, aniq bir kishiga shaxsan yoki gazeta orqali murojaat qilish, gazetaga maslahat

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Manaviyat, 2009, 176-b.

so'rab murojaat etish, tavsiyalar olish, o'z g'oyalarini vatandoshlari bilan muhokama qilish, munozarada ishtirok etish imkonini beradi.

“Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi”¹.

Ayni sharoitda hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” asarida matbuot xodimlari oldida turgan vazifaga shunday ta'rif beradi: “Bugungi kunda har qaysi matbuot xodimi kasb mahoratini egallash bilan birga o'z hayotiy prinsplariga ham ega bo'lishi, haqiqat uchun kurashishga intilishi, shu yo'lda qat'iyat va shijoat ko'rsatishi, lo'nda qilib aytganda, vijdon amri bilan yashashni zamonning o'zi talab qilmoqda...”

Gazeta ommaviy axborot vositasi ekan ommaga axborot yetkazish bilan birga, ularning siyosiy ongini shakllantirishga, ma'naviyatini yuksaltirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari soni bugungi kunga kelib 1372 tani tashkil etadi. Ularning har biri o'z yo'nalishiga, o'z g'oya va maqsadlariga ega. Bu gazetaning uslubini, materiallarining tilini belgilaydi. Gazeta mushtariylari sonining oshishi ham aynan uning tili va uslubi bilan bog'liqdir. Gazeta tilining asosiy xususiyatlari matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi kunda mustaqil davlatimiz ommaviy axborot vositalari va ularda xizmat qilayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli, oshkora faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Matbuotga oid qator qonunlar qabul qilindi. Keyingi yillarda Oliy Majlis qonunchilik palatasi mazkur qonunlarni yanada takomillashtirib, maromiga yetkazmoqda. Bu qonun hujjatlari har qaysi ommaviy axborot vositalari va har bir jurnalist uchun dasturulamal, o'ziga xos himoya vositasidir.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi// Xalq so'zi, 2010, 13-noyabr.

Jumladan mustaqillik va keyingi yillarda matbuot va ommaviy axborot vositalariga doir "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"(yangi tahriri), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Matbuot, Axborot tizimlari va Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" va ko'plab boshqa qaror va qonunlar qabul qilindi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, davlatimiz rahbarining shaxsan tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan jurnalistlar uchun o'ta muhim ikki qonun: O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" hamda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Bular tom ma'noda hali ayrim taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mavjud bo'lmagan qonunlardir. Ayni paytda mazkur muhim hujjatlarning oqilona ishlashini ta'minlash, qonun orqali himoyalani, haq- huquqlarini tegishli joylarda talab qilish, jurnalistlarning, ommaviy axborot vositalari xodimlarining o'zlariga bog'liq¹.

Bundan tashqari, yurtimizda matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarining mehnatini munosib taqdirlash va rag'batlantirish, ijodlarini yanada ilhomlashtirish maqsadida turli tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. Milliy va xalqaro jurnalistikaning eng yuksak yutuqlarini keng ommalashtirish, OAV xodimlari fuqarolik pozitsiyalarini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish hamda jurnalistlarda tanqidiy fikrlashni va ijodiy faoliyatga yangicha yondashuvlarni shakllantirish maqsadida tashkillashtirilgan "Oltin qalam" Milliy mukofoti, "Eng ulug', eng aziz" va boshqa tanlovlarni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin.

Malakaviy bitiruv ishimga ma'lumot to'plash, fakt yig'ish, ob'yektni o'rganish jarayonida "Hurriyat" gazetasining birinchi sahifasidagi shior e'tiborimni tortdi: "O'zingni angla!" Avvalida bu so'zlar ishimga aloqador emasdek tuyuldi. Mavzuni chuqur o'rganar ekanman, bu shiorning o'rganayotgan mavzuimga

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi Qonuni// To'rtinchi hokimiyat – T.: O'zbekiston, 1998, 73-b.

bog'liqlik tomonlari ko'p ekaniga amin bo'ldim. "O'zingni angla!". Odam o'zini anglay olsagina, dunyoni, borliqni anglaydi. Gazetaning shiori orqali ham, uning haqiqatda ham mustaqil fikrga ega gazeta ekaniga ishonch hosil qilasiz.

Ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishini shartli ravishda "Gazetada til va uslub masalalari ("Hurriyat" gazetasi materiallari misolida (2012-2013-yillar misolida)) deb nomladik. Ilgari bu xususida ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Alohida tadqiqot ob'yekti qilinib malakaviy bitiruv ishi sifatida yoritilmagan. Shu bois mavzumiz yangi hisoblanadi. Mazkur bitiruv ishida bosma ommaviy axborot vositalarining tili va uslubiga yana bir yangicha nazar tashlandi. Har tomonlama tahlil etilgan "Hurriyat" mustaqil gazetasining tili va uslubi ilk marta o'rganildi. Gazeta materiallari tahlil etildi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, hozirgi davr o'quvchilarining bilimi, saviyasi, madaniylik darajasi juda yuqori, ularning o'zaro aloqa qilish doirasi ham nihoyatda keng va xilma-xil. Hozirgi o'zbek gazetxoni fan-texnikadan ham, siyosat va xalqaro ahvoldan ham, ishlab chiqarishning turli sohalaridan ham xabardor. Binobrin, uning xilma-xil til vositalarini, turli uslub unsurlarini bimalol tushunish va fahmlash imkoniyatiga ham ega. Gazeta tilida turli uslub vositalarining ishlatilishi sotsiologik omil bilan bog'liqdir.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi va vazifalari

Bitiruv ishining maqsadi

- Gazetadagi til va uslub masalalarini o'rganib chiqish va uni "Hurriyat" gazetasi misolida tahlil qilish. Gazetaning 2012-2013- yillar sonlarini kuzatib ulardagi lisoniy va janriy- uslubiy jihatlarni baholash.

Ushbu maqsadga asoslanib, quyidagi vazifalar hal etiladi:

- matnning tilning tutgan o'rni, roli va uning yozma nutqni bayon etishdagi ahamiyatini ochib berish
- gazeta uslubining umumiy xususiyatlariga ta'rif berish
- "Hurriyat" mustaqil gazetasi materiallarining janriy-uslubiy salohiyatini ko'rsatish

- “Hurriyat” gazetasining lisoniy o’ziga xosligini aniqlash va materiallarida qo’llanilgan til vositalarini o’rganish

Ishning nazariy va metodologik asosi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasi OAV Faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Milliy jurnalistika taraqqiyoti masalalariga bag’ishlangan asarlari bitiruv ishining metodologik asosi bo’lib xizmat qildi.

Ishning nazariy asosini Toshaliyev, R.Abdusattorov “Ommaviy axborotning tili va uslubi”, Z.T.Toxirov “Adabiy tahrir”, Toshmuhammedovalar asarlari va manbalari tashkil etadi.

Bitiruv ishining obyekti va predmeti. “Hurriyat” gazetasining 2012-2013-yillar sonlari bitiruv ishining obyektni tashkil etadi. Bitiruv ishining predmetini esa “Hurriyat” mustaqil gazetasining barcha materiallari, ularning sarlavhalari, gazetani tashlik etgan barcha unsurlar o’z ichiga oladi.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv ishi kirish, 2ta bob, 4ta fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

Kirishda mavzuning dolzarbligi, ishning ilmiy yangiligi, bitiruv ishining maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti bayon etildi.

Asosiy qismning 1-bobida matbuotda til va uslub masalalari haqida nazariy ma’lumotlar, 1-faslida gazeta tilining umumiy tavsifi, 2-faslida gazeta uslubining o’ziga xos jihatlari keltirib o’tiladi.

2-bobda “Hurriyat” gazetasining tili va uslubiga alohida to’xtalib o’tiladi. 1-faslida “Hurriyat” gazetasining janriy - uslubiy xususiyatlari sanab o’tilsa, 2-faslida “Hurriyat” gazetasining lisoniy o’ziga xosligi e’tirof etiladi.

Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

I BOB.

MATBUOTDA TIL VA USLUB MASALALARI

1.1. Gazeta tilining umumiy tavsifi

Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas. Til insoniyat tarixi qadar qadimiylidir. Jamiyat tarixida tillarning keyingi taraqqiyoti milliy tillarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Milliy tilning yagonaligi shuni ko'rsatadiki, til shu millatning barcha tabaqalar, guruhlar va sinflariga tushunarli va bab baravar xizmat qilib, ularning hammasi uchun birdan bir aloqa vositasi bo'lib qoladi. Chunki til ayrim sinf, ayrim guruh tomonidan emas, balki jamiyatning barcha a'zolari – umumxalq tomonidan yaratilgan¹. Jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning ommaviy axborot vositalari, xususan, gazetadagi o'rni haqida to'xtalsak.

Omma bilan adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilgan holda muloqotga kirishuvchi gazeta tili matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq. Gazeta tamoyillarini faqat mazmuni, yo'nalishi, matbuot faoliyatining tavsifi, uning faktlar, jamiyat hayotidagi hodisalar, siyosat va hokazolarni baholashgina emas, balki publitsistik shakllarning o'ziga xos mohiyati, avvalo, gazeta- publitsistikaning tili va uslubini ham belgilaydi.

Publitsistik asar shakli, tili va ohangiga doimo katta e'tibor qaratiladi, buni adabiy xodimlar, ayniqsa, muharrirlar unutmasligi lozim. Davriy matbuot shakli, mazmun mohiyatidan qat'iy nazar, adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Garchi bugunga kelib axborot globallashuv, jadallik sharoitida, davr taqozosiga ko'ra matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv gazeta tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta, jurnal qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uning tilida shu sohaga mansub terminlar, birikmalar, konstruksiyalar sezilarli darajada uchraydi. Shunga ko'ra gazeta tiliga quruq rasmiylik, siyosiy(partiyaviy)likdan tashqari, emotsionallik ham hosdir. Emotsionallik, tabiiy matn ta'sirchanligi yodda qolarligini ta'minlaydi. Asar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ilmiy bo'lsin, baribir qaysidir darajada emotsionallikka

¹ Qarang: Xolmanova.Z.T. Tilshunoslikka kirish. - T.: Universitet, 2007, 14-b.

ham ega bo'lishi lozim. Chunki tilning emotsionalligi, baholash xususiyati publitsistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab publitsisning tabiati, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi.

Publitsistikada, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, targ'ibotda til vositalari kishilar ongiga ta'sir o'tkazish va ishontirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda til vositalaridan foydalanish ko'p jihatdan ommaga samarali va aniq maqsadli ta'sir etishdagi ijtimoiy baholash sifati imkoniyatiga bog'liq.

Gazeta ifodaning baholash vositalarini muntazam izlaydi. Bayonning baholovchiligiga erishish gazeta tilidagi asosiy jihatdir. Muharrir boshqa funksional uslublarda baholash muammosi publitsistikadagiga ahamiyat va dolzarblik kasb etmasligini nazarda tutgan holda, matn tahriri jarayonida rang – barang leksik vositalarning qo'llanilishiga to'sqinlik qilmasligi lozim, agar ular muallif tomonidan o'rinda va me'yori bilan ishlatilgan bo'lsa. Masalan, oddiy so'zlashuvga oid so'zlar, kitobiy, balandparvoz (yuqori uslubga xos) so'zlar, arxaizmlar, maxsus so'zlar, ko'chma ma'noli so'zlar va boshqalar.

Bundan tashqari, gazeta tilida turli so'z yasovchilar, emotsional-ekspressiv bo'yoqdor grammatik vositalar, so'zlashuv uslubiga xos konstruksiyalar, sintaksisning turli-tuman emotsional (ritorik) vositalari va boshqalar ham uchraydi. Agar bular individual (shaxsiy) bo'lmay, ijtimoiy tavsifga ega bo'lsa, muharrir tahrir paytida buni ham e'tiborga olishi kerak.

Gazeta tilidagi so'zning ijtimoiy qimmati nutq egasining nuqtai nazari bilan belgilanadi. Chunki u faqat muallifgagina tegishli bo'lmay, tahririyatga ham tegishli, shuningdek, ijtimoiy guruh, tashkilot, partiyaga, gazeta kimning fikri, kimning siyosatini ifoda etsa o'shanga ham taalluqlidir. Gazetadagi har bir so'z jamoa (tahririyat, partiya, uyushma va h)ning obro'yi bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Gazetada so'zning kuchi, keskinligining sabablaridan biri shunda ekanligini tahrir vaqtida hisobga olish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, faktlar, hodisalar, voqealarni ifoda etuvchi nutq vositalarini tanlash gazeta tilining ijtimoiy, individual emasligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Gazetada, asosan, ijtimoiy qimmatli ommaboplik xususiyatiga ega va shu bilan birga publitsistik-emotsional kuchga ega nutq vositalarini yo'qotmagan nutq vositalaridan foydalaniladi. Lekin muallif ham, muharrir ham shuni yodida saqlashi kerakki, gazeta faqat ijtimoiy qimmatga ega nutq vositalaridan foydalanibgina qolmay, balki shundaylarni o'zi ham "ixtiro" qiladi. Adabiy tildagi sinonimiya hodisasida ham tabaqalashish e'tiborga sazovordir. Masalan, kutubxona, nurli dargoh, nurxona: universitet, dorilfunun, ziyo maskani, kashfiyot, mashaqqat mevasi va hok.

Kutubxona so'zining sinonimiga aylangan nurli dargoh, nurxona birikmasi va so'zi universitetga sinonim bo'lgan, ziyo maskani nashriyot sinonimiga aylangan birikma- mashaqqat mevasi ayni gazeta ixtirolari hisoblanadi.

Demak, gazeta nutqi, bu avvalo, ta'sir etishga qaratilgan nutq, shuning uchun auditoriya manfaatlari va maqsadga muvofiqlik hisobga olinadi. Gazeta matnlarining tahriri bilan shug'ullanuvchi jurnalist shuni yaxshi bilishi kerakki, gazeta tilining ijtimoiy baholash tamoyili, avvalo, baholovchi til vositalarini tanlash va ulardagi jamiyat maqsadli intilishlariga muvofiq ham ijobiy ham salbiy tushuncha va hodisalarni ifodalashga bog'liqdir. Agar gazeta partiyaviy bo'lsa, tilining ijtimoiy- siyosiy baholash mazmuni lo'nda, keskin bo'lishi kerak ¹.

Gazeta matni tahrir qiluvchilar, ayniqsa, bunga endigina kirishgan, hali yetarli tajriba va malakaga ega bo'lmagan muharrirlar gazeta tilidagi ekspessivlik, tasviriylikni "qattiq qo'llik" bilan bartaraf qilishga kirishishdan oldin, shuni yaxshi bilishlari lozimki, gazeta tilini bu borada juda ham cheklab qo'yish mumkin emas. Bular ham bayonda foydalaniladigan vositalar sanaladi.

Publitsistika emotsional, ta'sirchan, tasviriy lekin bu hislatlar badiiy adabiyot bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi omil – so'z, farqlantiruvchi esa tavsifdagi turlilik, so'zdan foydalanish tabiati, usulidir. Badiiy asarning bosh maqsadi borliqni obrazli ifoda etish, publitsistik nutqda esa fikr va nutqning

¹ Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2012, 239-b.

chuqurligi, mazmundorligi, ifodaning qat'iyiligi, emotsionalligi asosiy hisoblanadi. Borliqqa munosabat publitsistika va badiiy asarda tubdan farq qiladi.

Mavjud narsa hodisaga turlicha yondashish publitsistika va badiiy asar tili funksiyasining turlicha bo'lishini taqozo etadi. Yozuvchi voqelikni o'zi yaratgan tasvirlar orqali aks ettiradi, ko'rsatib chizib beradi, bundan tashqari o'zi yaratgan obrazlardan, ularga bo'lgan o'z mehri va qahridan foydalanib munosabat bildiradi. Publitsis esa ochiq- oydin targ'ib qiladi, ishontiradi, da'vat etadi. Publitsistik asar matni ustida ishlayotganda muharrir, albatta, gazeta tili tasviriy ta'sirchanlik vositalarining vazifasi baholash ekanligini yodda tutishi kerak, zero bular faqat baholash uchun xizmat qilishi lozim.

Gazeta nutqida metafora, metonimiya, sinekdoxa, geroniya, jonlantirish, o'xshatish va bolalar gazeta uslubiga ko'ra o'ziga xos vazifani bajaradi. Agar gazeta materiallarida ko'chirimlardan ko'plab foydalanilsa, ustiga ustak, ular murakkab, hamma ham tushunavermaydigan bo'lsa, matn (gazeta nutqi) o'z kommunikativligi (ommabopligi)ni yo'qotadi. Bunda estetik mezon bo'lib, oddiylik, tushunarlilik hisoblanadi. Badiiy asarda esa murakkablik mohirona tanlanganlik, o'ta nozik ma'nolik estetik mezon sanaladi. Mafkuraviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jihatdan muhim tushunchalarni ifodalashda qo'shimchalardan samarali foydalaniladi: g'oyaviy g'o'r, siyosiy ko'r: oq oltin, qora oltin, ishlab chiqarish noni, po'lat qanotlar, fazoni o'zlashtiruvchilar, ilm o'chog'i, po'lat tomirlar.

Publitsistikada yana bir o'ziga xos jihat bo'lib, u ham bo'lsa, amalda nutqni yaratuvchi muallif "men"iga to'g'ri keladi. Shuning uchun muharrir bitta uslubiy qatlamga – muallif nutqiga duch keladi. Lekin u publitsis nutqini kambag'al qilib qo'ymaydi. Balki ayni ana shunda uning o'ziga xosligi, ta'sirchanligi va kuchi namoyon bo'ladi.

Gazeta tilining o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning andozaviyligidir. Gazeta nutqining bu xususiyati u paydo bo'lgandan boshlab to shu kungacha so'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunga sabab til grammatika vositalarini tanlash qat'iy belgilanganligi. (Grammatik tuzilish bunda mutlaqo qat'iy va bajarilishi shart qilib

qo'yilgan bo'ladi). Bundan tashqari, gazeta uchun belgilangan ijtimoiy- madaniy sharoitning o'ziga xosligi (maksimal miqdordagi o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallanganligi, shuningdek, til muhitining betarafligi, ya'ni uslublar bo'yicha malakasi nihoyatda turlicha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanganligi). Ammo andozaviylik istisno tarzida qotib qolgan gazeta tilining o'ziga xos jihati, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi. Muharrirdan tahrir jarayonida bu holga ijodiy yondashuv talab etiladi. Aslida nutqiy faoliyatining barcha sohasi andozalangan hisoblanadi. Lekin, shu bilan birga, nutqning andozaviyligi tabiiy mavjud va takomillashuvchi jarayon. Bundan maqsad lo'nda muloqiy-oqilona tayyor nutq formulasini aloqaning turli sohalari va maqsadlari uchun tayyorlashdan iboratdir. Aslida adabiy tilning moslashuvchanligi, ishchanligi ko'p jihatdan uning andozalanganlik darajasiga, turli vaziyat, maqsad va boshqalar uchun nutqiy qolip (klishe)lar andoza, formulaning ko'p-ozligiga bog'liqdir. Yuqorida qayd etilgan nutqiy shakllarning bo'lmasligi muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, til egalarini muayyan muloqot sharoiti uchun yangidan yangi nutqiy konstruksiyalar, formulalar yaratishga majbur qiladi, o'z navbatida, nutqiy janrlar ishlanmaganligini anglatadi.

Nutqning andozaviyligi tilda tayyor olinmalar barqarorlashuviga olib keladi, ifodaga muntazamlilik, doim tayyorlik, mudomlik bag'ishlaydi, nomlar va baholarning ijtimoiy qaror topganlik tamoyilini yuzaga keltiradi.

Andozaviylikka qarshilik qiluvchi va u bilan o'zaro bog'liqlikda bo'luvchi ekspressivlik bir qolipdalikni buzadi, nutq formulalarini o'zgartiradi, yangilaydi. Gazeta nutqi ekspressivlikdan mutlaqo xoli bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun andozaviylik va ekspressivlikning birgalikda mavjud bo'lish jarayoni adabiy tilni, uning barcha uslublarini qamrab oladi. Gazeta tilida bu aloqadorlik – birgalikda amal qilish jarayoni shart omil bo'lib hisoblanadi. Har ikki hodisa gazeta tilining o'ziga xos tabiati, mohiyatidan kelib chiqadi, vaholanki, gazeta ijtimoiy xarakterga ega va ommaviy aloqa vositasi – umumahamiyatga molik matniy muloqot sanaladi. Shuning uchun matn ustida ishlash jarayonida muharrir har ikki jihatga alohida e'tibor bergan holda, andozaviylikka chuqurroq yondashmog'i lozim.

Chunki, jurnalist faoliyatning zid xarakteri, mavzularning mavsumiyligi, qaytarilishi, vaziyatlarning takrorlanishi shuni taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gazetalaridagi qolipga aylanib qolgan konstruksiyalar, formulalar ijobiy yoki salbiy baholovchidir. Masalan: mas'uliyatni zimmasiga oldi, muayyan ishlar amalga oshirildi, muxlislar ishonchini oqlamadi... oqladi, ko'tarinki ruhda, zo'r qoniqish bilan... ga ish bilan javob bermoq, ya'ni marralar belgilandi, istiqbol rejası tuzildi, joriy yilda... ... zo'r ko'tarinki ruhda o'tdi, saylov kompaniyasi boshlandi, ... tugadi, mo'l hosil yetishtirildi, ... yig'ib olindi, jazodan qochib-qutilib bo'lmaydi, qilmish- qidirmish deb shuni aytadilar, ... ga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi, ... yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Ayrim rasmiy, xronik xabarlardagi qoliplarni istisno tariqasida qabul qilish mumkin: ...xabarlarga ko'ra, ... aytishlaricha, ...so'zlariga qaraganda, ... vaziyatda, ... muhitda, hamjihatlik bilan va b. Ocherklarda ham ayrim qolip so'z, birikmalar uchraydi, muharrirlar ham bularni istisno tariqasida qabul qilishlari lozim: qo'li gul ustalar, ishning ko'zini bilib, nuroniy chehralar, mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi, orzular qanotida parvoz etib, mehr qo'rini berib, ko'z qorachig'idek asramoq, el- yurt xizmatida bo'lmoq, elim deb, yurtim deb yonib yashamoq va b.

Shunday qilib, gazeta nutqini andozalashtirish ijtimoiy- kommunikativ baholash yo'nalishida bo'ladi. Gazeta materiallarini tahrir qilishda (har holda ko'pgina janrlarda), andozalashgan targ'ibot, baholash, tashviqot nazarda tutiladi, ko'p marta foydalanish mumkinligi hisobga olinadi va (aksar hollarda) emotsional ta'sir ko'rsatishga mo'ljallanadi (masalan, qora guruhlar, futbol ishqibozlari, tinchlik kuchlari va h)

Andozaviylikni tildagi salbiy hodisa sifatida baholash ham yo'q emas, masalan, unga shunday sifat beriladi: quruq, trafaret, bir qolipdalik, o'zgarmas va b. Lekin andozaviylikni tilning rang- barang va boy bo'lishiga zidgina emas, balki shunga xizmat ham qiladi, individual mahorat, o'ziga xoslik, nutq san'atkorligini ham yuzaga chiqaradi. Zero, muharrir uchun ham, nutq ijodchisi uchun ham tayyor shakllar qancha ko'p bo'lsa, til shuncha boyiydi. Demak, mualliflar ham , muharrirlar ham hamisha izlanishda bo'lishi, yangidan-yangi andozalarni ijod

qilishi va gazeta matnlariga kiritishi kerak. Emotsional –ekspressivligini yo'qotgan qolip, nutq shakllaridan foydalanavermaslik kerak. Masalan, tilga e'tibor – elga e'tibor allaqachon qolip-andozaga aylanib bo'lgan, undan takror-takror foydalanaverilganidan bugunga kelib emotsional- ekspressivligini yo'qotgan, ta'sir kuchi ham qolmagan, agar muallif yoki muharrir haqiqiy ijodchi bo'lsa, ma'noga putur yetkazmagan holda, boshqa shakllarni topishi mumkin. Masalan, tilga hurmat – elga hurmat, til qadri – el qadri, tili ardoqlining o'zi ardoqli va b. shunda andoza chuqur estetik ma'no kashf etadi¹.

Gazeta tili ommaviy kommunikatsiyaning (radio va televideniya bilan farqli) o'ziga xos shakli sanaladi. Uning asosiy mohiyati madaniy matniy muloqot tarzida amal qilishi va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallanganligidadir.

Odatdagi nutq jarayonida uch asosiy halqa: so'zlovchi, xabar (nutq) va tinglovchi ishtirok etadi. Ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasida muayyan bir vaziyatda bevosita aloqada yuzaga keladigan bunday nutq odatda og'zaki shaklda bo'lishi va nutq sohibi ma'lum bir shaxs hisoblanadi.

Ommaviy axborotda esa to'rinchi halqa - ommaviy kommunikatsiya vositasi ham ishtirok etadi. Gazeta, radio, televideniye axborotni keng o'quvchilar ommasiga yetkazishning texnik vositasi sanaladi. Gazetani butun xalq o'qiydi. Demak, gazeta nutqi miqdor jihatdan ko'p, yoshi, kasbi, sohasi, bilimi va ijtimoiy toifasi jihatdan xilma-xil bo'lgan hududan tarqoq butun bir auditoriyaga mo'ljallangan. Tahririyat ularning barchasi bilan alohida-alohida munosabatda bo'la olmaydi. Nutq sohibi (kommunikator: jurnalist yoki muassasa) bilan adresat (o'quvchilar) o'rtasida masofa jihatdan ham, vaqt jihatdan ham uzilish bor. Binobarin, gazetani o'qish jarayonida gazetxon tushunishi qiyin o'rinlarni darhol so'rab bilib olish imkoniyatiga ega emas. Bunday "indamas" auditoriya sharoiti gazeta materiali tilining hamma uchun bir xilda tushunarli bo'lishini ta'minlashni taqozo etadi. Gazetada til vositalarini tanlash va ishlatishning asosiy tamoyili, eng avvalo, xuddi mana shu omil asosida belgilanadi. Boshqacha aytganda, gazeta

¹Qarang: Tohirov.Z.T. Matbuotda til va uslub masalalari risolasi: Oliy Jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari seminar materiallari kitobi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, -T.: 2013, 121-b.

tilining eng muhim xususiyatlaridan birini nutq adresati (keng o'quvchilar ommasi) belgilab beradi. Bu gazeta tilining ommaboplik va hammaboplik xususiyatlarini tayin etib beradi hamda ko'pchilikka tushunilishi qiyin so'z va ifodalar, maxsus terminlarning, adabiy til maromi (normasi)dan tashqarida bo'lgan til vositalari (dialektizmlar, jargonlar, poetizmlar va arxaizmlar)ning ishlatilishini cheklaydi. Fikrni, xabarning tez va oson tushunilishini qiyinlashtiradigan nutq vositalari va sintaktik tuzilmalarning barchasi gazeta tili uchun begona hisoblanadi. Matbuot til oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ham materiallarning ommabop tilda aniq va lo'nda hamda ta'sirchan shaklda yozilishi zarurligidir. Bu talab ma'lum darajada gazeta tilining estetik mezonini ham belgilab beradi. Tuman gazetalari, shuningdek, ma'lum yo'nalishdagi sohaviy yoki tarmoq gazetalari tilidagi o'ziga xos xususiyatlar, ayniqsa, u yoki bu soha bilan bog'liq so'z va terminlarning ishlatilishidagi nisbat ham asosan gazeta o'quvchilarining sotsiolingvistik tavsifi bilan belgilanadi.

Gazetada til vositalarining ishlatilishi u yoki bu materialning qanday auditoriyaga mo'ljallanganligi bilan ham bog'liq. Chunonchi, mutaxassislar, fan va texnika kishilari uchun mo'ljallangan ayrim materiallar tili ilmiy nutq unsurlarining, terminologik leksikaning ko'proq ishlatilishi bilan boshqalaridan ajralib turishi mumkin. Bunday hollarda gazeta rubrikalari alohida rol o'ynaydi: u materialning kimlarga mo'ljallanganligini ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Bunday xususiy holatlardan qat'iy nazar gazeta tili ommabop, hammabop, tushunarli bo'lishi lozim.

Gazeta tilining muhim xususiyatlaridan yana biri uning mazmun ko'lamining mavzu jihatdan xilma-xilligi bilan bog'liq. Gazeta axboroti kichik bir korxona yoki mahalladagi yangiliklarni ham, dunyodagi munosabatlarga oid voqealarni ham o'z ichiga oladi. Unda rasmiy-siyosiy materiallardan tortib, kundalik turmushimizdagi oddiy hodisalargacha o'z ifodasini topishi mumkin. Gazeta sahifasida oddiy dehqon, ishchidan tortib, akademikkacha qatnasha oladi. Bu omil gazeta tilida qo'llanadigan nutq vositalari ko'lamining juda keng

ekanligini ko'rsatadi. Demak, gazeta tili boy tasviriy ifoda vositalariga egaligi bilan so'zlashuv, ilmiy va rasmiy uslublardan ajralib turadi.

Gazeta tilida o'zbek tilining boshqa funksional uslublariga xos unsurlarning o'ziga xos tarzda aralashuvi, matbuotning asosiy maqsadiga muvofiq ravishda o'zaro uyg'unlashuvi yuz beradi. Chunonchi, gazeta uslubi yozma nutq shaklida amal qiladi. Shunga muvofiq u yozma-kitobiy marom (norma)lar va qonuniyatlarga mos keladi. Ammo gazeta tilini xalq tiliga yaqinlashtirish, xalq bilan xalq tilida, ommabop tilda gaplashish so'zlashuv uslubi unsurlarining faol qo'llanishini ham taqozo etadi. Ijtimoiy qiymatli hodisalarni umumlashtirish, talqiniy tahlil, mafkuraviy talqin va intellektual mushohada yuritish hozirgi gazetalar uslubi uchun xarakterli xususiyatlardan bo'lib, bu gazeta aqliy-axboriy va tahliliy talqiniy vazifasining faollashuvi uchun zarur sharoit yaratgan. Bu o'z navbatida, gazeta tiliga ilmiy nutq ta'sirining kuchayishi bilan izohlanadi.

Gazeta nutqida rasmiy uslubga xos so'z va o'ramlar ham qo'llanadi. Bu unsurlarning ishlatilishi ko'pincha sun'iy ifodalar, shablon vositalar sifatida baholanadi ham. Ammo bu fikrga muayyan janrlar tabiatidan kelib chiqib yondashish lozim. O'z navbatida, matbuotda rasmiy axborotlarning tez-tez berib borilishini ham unutmaslik kerak.

Hozirgi davr o'quvchilarining bilimi, saviyasi, madaniylik darajasi juda yuqori, ularning o'zaro aloqa qilish doirasi ham nihoyatda keng va xilma-xil. Hozirgi o'zbek gazetxoni fan-texnikadan ham, siyosat va xalqaro ahvoldan ham, ishlab chiqarishning turli sohalaridan ham xabardor. Binobrin, uning xilma-xil til vositalarini, turli uslub unsurlarini bemalol tushunish va fahmlash imkoniyatiga ham ega. Gazeta tilida turli uslub vositalarining ishlatilishi mana shu sotsiolingvistik omil bilan ham bog'liq, albatta.

O'zni kelganda aytish kerakki, o'zbek ommaviy axboriy muloqot (kommunikatsiya) uslubining tarkib topishi va shakllanishi til vositalarining funksional uslublar bo'yicha tabaqalanishi - ixtisoslashuvi nisbatidagi muayyan o'zgarishlar, stilistik maromlarning qayta baholashlar bilan bevosita bog'liqdir. Boshqa uslub unsurlarining gazeta matnlarida qo'llanish jarayonida ularning

ommaviy axborot vaziyati (vositalari) va ommaviy matniy muloqot talablari, uslubiy kommunikativ qonuniyatlariga moslashuvi yuz beradi. Ular ham ommaboplik, hammaboplik tamoyiliga muvofiq stilistik jihatdan neytrallashadi. Turli uslub elementlarining bu tarzda birikishi, o'zaro uyg'unlashuvi funksional-stilistik jihatdan yangi sifatni - gazeta uslubi uchun xoslanib qolgan maromli betaraf (neytral) ifoda vositalarini qaror toptirgan. Demak, gazeta tilida turli nutq vositalarining aralashuvi ommaviy muloqot uslubining shakllanish jarayoni, uning faol tarixiy taraqqiyoti natijasi hisoblanadi va hozirgi o'zbek gazetalari tilining maromlilik va andozaviylik xususiyatlarini belgilaydi. Xuddi mana shu xususiyatlar gazeta uslubini boshqa uslublardan farqlab ham turadi. Bu nimalarda ko'rinadi?

Avvalo, gazeta tili uchun o'ta kitobiylik ham, o'ta ilmiylik ham xarakterli emas. Gazeta uchun ilmiy matnlar ommabop qilib qayta ishlanadi. Aks holda ularning gazeta uslubining umumiy stilistik ohangiga zidligi sezilib qoladi. Matnni ortiqcha badiiylashtirish, obrazli ifoda vositalarini qalashtirib tashlash ham gazeta nutqi estetik talabiga ziddir. Axborotning ifoda shakliga ortiqcha zeb berish, badiiy nutq unsurlarini oshirib yuborish balandparvozlikka, ijtimoiy-siyosiy ishchanlik ruhining pasayishiga olib keladi. Zero, badiiy matnning gazeta sahifasidagi boshqa materiallardan ajralib turishini o'quvchi yaxshi biladi¹.

Tadqiqotchi V.G.Kostomarovning ta'kidlashicha, "...gazeta matnlarida turli uslublarga xos til vositalarini birlashtirish miqdor jihatdan ham, an'anaviy qoidalarni buzishga intilish jihatdan ham har bir jurnalist tomonidan beixtiyor his qilinadigan qat'iy qonunga aylanib qolgan". Bu qoida gazeta uslubi uchun xarakterli bo'lmagan so'z va iboralarning, boshqa uslub elementlarining gazeta materiallari matni uchun begonaligini, tasodifiyligini ko'rsatuvchi ob'yektiv umumiy uslubiy alomatlar gazeta tili uchun ixtisoslashib qolgan maromli nutqiy qatlam asosidagina fahmlanadi.

¹Qarang: Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. -T.: Zar qalam, 2006, 85-b.

1.2. Gazeta uslubining o'ziga xos jihatlari

Ommaviy muloqot uslubi gazeta va jurnal nutqini ham, radio va telenutqni ham o'z ichiga oladi hamda ularga xos umumiy lisoniy-uslubiy sifatlar asosida tavsiflanadi. Zero, ommaviy muloqot gazeta-jurnal, radio va televideniye bilan birgalikda axborot uzatishning bir butun tizimini tashkil etadi. Matbuot, radio va televideniye o'ziga xos xususiyatlar, bir-biridan farqli jihatlar bilan tavsiflanuvchi yaxlit ommaviy muloqot tizimining ichki turlari, ommaviy muloqot uslubining ichki ko'rinishlari sanaladi.

Shunga ko'ra, matbuot tili va uslubi, radio tili va uslubi, telemuloqot tili va uslubi ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib alohida-alohida tavsiflanadi ham. Lekin bular hozirgi o'zbek adabiy tili yagona ommaviy muloqot uslubining ichki tarmoqlanishi sifatida tasavvur qilinaveradi. Ommaviy muloqot uslubi adabiy til funksional uslublari tizimida o'ziga xos lisoniy sifatlar bilan ajralib turadi¹.

Ommaviy muloqot uslubining o'ziga xosligi, eng avvalo, uning nutqiy tarkiblanishida, matniy qurilishida, shuningdek, axborotni berish usuli va mavzuni yoritish tarzida ko'rinadi. Bu uning asosiy mazmuni tabiatidan, ijtimoiy maqsadidan kelib chiqadi. Chunonchi dolzarb ijtimoiy mavzuni ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishda baholab talqin etish va tasvirlash jurnalist ijodining mohiyatini tashkil etadi. Jurnalistning yozuvchidan, ommaviy muloqotning badiiy adabiyotdan farqi ayon voqea-hodisaga asoslanishdir, hujjatlilikdir; aqliy-tahliliy fikrlashdir. Shunday ekan, til vositalarini tanlash qo'llashda ham, matniy qurilishni shakllantirishda ham mana shu tamoyilga asoslaniladi. Bu uslubga aniqlik, ayon voqelikka muvofiqlik - hujjatlilik hamda ijtimoiylik ruhini beradi; fikr bayon qilishda mavhumlikdan (demak, o'ta mubolag'a yoki fahmlash qiyin bo'lgan timsoliylikdan ham) qochiladi, voqelik fakti ham, u haqdagi fikr-mulohaza ham tasdiqlangan, dalillangan hamda ishonchli bo'lishi talab qilinadi. Ommaviy muloqot fikrlarning tez almashinuviga yo'l qo'ymaydi. Ommaviy bayonda har

¹Qarang: Tohirov Z.T. Gazetada til va uslub masalalari. Oliy jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari mavzuida ilmiy- amaliy seminar materiallari. –T.: G'afur G'ulom nomida nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013, 121-b.

bir fikrni batafsil rivojlantirish, dalillash va sharhlash, xulosalash maromli nutqiy tuzilish hisoblanadi.

Fikrlarning tezkor almashinuvi - bayondagi tig'izlik o'quvchi yoki tinglovchining uni fahmlashga, undan mantiqiy xulosa chiqarib olishiga to'sqinlik qiladi. Natijada, muloqotning maqsadi, matn mazmuni to'liq anglashilmay qoladi.

Voqelikka munosabat nuqtai nazaridan adabiy til uslublari bir xilda teng qiymatga ega emas. Ular nolisoniy voqelikni turlicha aks ettiradi. Masalan, ilmiy yoki rasmiy uslub nolisoniy voqelikning bir turdagi, bir xil tizimdagi sohasinigina qamrab oladi (Ular tor mavzu ko'lamiga ega).

Ommaviy muloqot uslubining mavzu ko'lamini nihoyatda keng, ko'lamini cheksiz. U ijtimoiy hayotning barcha sohalarini ham barcha ijtimoiy toifalarini ham qamrab oladi. Bu omil turli sohaga oid ommabop so'z va atamalarning, turli uslub unsurlarining qo'llanishini, matn qurilishidagi uslubiy aralashish esa o'ziga xos betaraf lug'at mulkini qaror toptiradi. V.G.Kostomarovning ta'kidlashicha, "...turli uslub vositalarini biriktirish miqdor jihatdan, shuningdek, an'anaviy qoidalarni buzishga intilish jihatdan ham har bir jurnalist tomonidan farosat bilan his qilinadigan buzilmas, qat'iy qonunga aylangan". Shu bois ommaviy muloqot uslubi chegaralangan (biqiq) emas, uning lisoniy-uslubiy vositalari va ifoda imkoniyatlari adabiy til lisoniy mulkidan kam emas.

Ommaviy muloqotda turli sohalarga mansub so'z va ifodalar, adabiy til barcha funksional uslublarga xos unsurlar takroriylik, barqarorlik sifatini kasb etadi. Natijada, ommaviy muloqotga xoslangan ijtimoiy-uslubiy nutq turini shakllantiradi.

Ommaviy muloqot uslubi tarkibidagi turli uslubga xos unsurlarning dastlabki uslubiy sifatlari ma'lum darajada betaraflashadi, ammo asl uslubiy sifatini butunlay yo'qotmaydi.

Qisman betaraflashuv, ixtisoslashuv odatiy qo'llanish va takroriylik maqomini oladi, o'z asliga muvofiqlikni saqlash esa muayyan "begonalik" sifatida

seziladi. Oqibatda usluban o'rtacha holatdagi qo'llanish maromi shakllanadi. A.N.Vasileva buni gazeta tilining asosiy konstruktiv tamoyili deydi.

Ommaviy muloqotda umumiy ijtimoiy nutqiy faoliyat va shaxsiy (shaxslararo) nutqiy faoliyatga xos sifatlar uyg'unligi yuzaga keladi. Ommaviy muloqot uslubida kitobiy-yozma nutq va og'zaki so'zlashuv nutqiga xos vosita va usullarning keng qo'llanishi ma'no shu omil asosida izohlanadi. Bu ommaviy muloqot uslubini belgilovchi bir jihat. Ikkinchi jihat ommaviy muloqot mohiyat e'tibori bilan jamiyatda qaror topgan va ko'pchilik tomonidan ma'qullangan g'oyalar, nuqtai nazarlarning uyushtirilgan yaxlit mezonni sifatida bayon qilinadi. Bu uning yozma-kitobiylik sifatini tayin etadi.

Ommaviy muloqotda shaxslararo muloqotga xos his-tuyg'uli fikrlar, hayajonli bayon yo'sini esa so'zlashuv nutqiga xoslik sifati ko'lamini tayin etadi. Bu ikki jihat o'rtasida aniq va keskin chegara yo'q.

Ommaviy muloqot ijtimoiy umumlashtirilgan va yo'naltirilgan bo'lib, bu uning nutqiy qurilishida umumiy uslubiy yo'nalishda o'z ifodasini topadi. Ommaviy muloqotda hissiy-ijodiy nutqiy xususiyat yetakchi xususiyat emas, shaxsiy uslub badiiy adabiyotdagiday keng ko'lamda namoyon bo'lolmaydi.

Ommaviy muloqotdagi lisoniy-uslubiy aralashuv o'ziga xos uslubiy sifatni qaror toptirgan. O'zga nutq unsurlari ommaviy muloqot tarkibida o'z uslubiy tabiatini qisman o'zgartiradi - muloqot ehtiyoji talabiga muvofiqlashadi va ommaviy ijtimoiy nutqning odatiy birligiga aylanadi. Bunday nutq, eng avvalo, matbuot, xususan, gazeta tilining betaraf asosini, umumiy lug'at qismini tashkil etadi. Bu umumiy asos ommaviy axborot vositalari tizimi tili va odatdagi erkin muomala (baqamti muloqot) tilini o'zaro bog'lovchi, uyg'unlashtiruvchi lisoniy mezonni qaror toptiradi: ommaviy muloqot uslubiga xos kitobiylik bilan og'zaki so'zlashuvga xos lisoniy erkinlik alohida funksional uslub doirasida omuxta bo'ladi.

Matbuot tili matniy muloqotga daxldor, yozma-kitobiy uslublar sirasiga mansub. Bu uning adabiylik, maromlilik, umumiylik va andozalashganlik sifatleri orqali tavsiflanadi. Ommaviy muloqot lug'atida ham, sintaksisida ham, adabiylik

zuhur etadi. Ammo bu umumiy xususiyat turli ommaviy axborot vositalarida, turli janriy materiallarda turlicha nisbatda namoyon bo'lishini istisno etmaydi¹.

Ommaviy muloqot auditoriyasining turfa xilligi tarqoqligi vaqt va makonga ko'ra uzilganligi (distantligi tartibga solingan, andozaga tushirilgan nutqiy aloqani taqazo etadi. Aloqaning ommabopligi, hammabopligi, axborot uzatishning avtomatlashtirilganligi (texnik vositalarga asoslanganligi) tayyor nutqiy andozalarni, qolip ifoda (shtamp)larni talab qiladi. Nutqiy qolipni, axborotning muayyan andozaga tushirilishini tildan foydalanishdagi tezkorlik, beixtiyorlik tufayli ham, nutqning ko'pchilikka tushunarli bo'lishi zarurligi tamoyili yuzaga keltiradi. Bu xususiyat aloqa kanalida to'sqinlikning bo'lmasligini, muloqot o'z ijtimoiy-lisoniy vazifasini to'g'ri va to'liq hamda maqsadga muvofiq bajarilishini ta'minlaydi.

Ommaviy muloqot uslubi ekstralingvistikasining o'zi mohiyatan ziddiyatli, ikki qutbning mutanosibligini, uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan yagona talab qo'yadi. Chunonchi, muloqotning ommaviy ijtimoiy yo'naltirilganligi katta auditoriyaga (hammaga) bir xilda tushunarli bo'lgan ommabop, hammabop nutq (matn) yaratishni taqazo etadi. Bu talab o'z- o'zidan nutqni andozalashtirishga, ifoda usulini birxillashtirishga undaydi. Ammo omma (auditoriya) ayon shaxslardan tarkib topgan bo'lib, ta'sir etish sharti nutqning hayajonli, jonli va ijodiy ifodalanishni taqozo etadi. Jurnalist umumlashgan auditoriya tasavvuri bilan emas uning o'rtamiyona lisoniy muhitiga mansub namunaviy vakili bilan aloqa bog'lashga, e'tiborini jalb etishga harakat qiladi. Jonli va samimiy muloqotning asosiy shartlaridan biri so'zlovchining, jurnalistning o'z fikriga, qiyofasiga, nutqiy mahoratiga ega ayon shaxs sifatida gavdalanishidir.

O'quvchi, tinglovchi jurnalistdan rasmiy- huquqiy muloqotdagi andozali, qoidali qat'iy ifoda usulini emas, shaxslantirilgan tabiiy jonli muloqotni kutadi. Bunday nutqiy vaziyat, bir tomondan, ma'lum vositalarni qayta-qayta takrorlashni (andozani), ikkinchi tomondan, bu andozali takroriylikni yangilab,

¹ Qarang: Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. T.: Zar qalam, 2006, 88-b.

o'zgartirib turishday ziddiyatli nutq amalini taqazo etadi. Shunday ekan, ommaviy muloqot uslubi uchun ixtisoslashgan til vositalarini (gazetizmlarni, qolip ifodalarni hisobga olmaganda) ajratib ko'rsatish ancha mushkul ish. Bu hol ommaviy muloqotning uslubiy tabiati, eng avvalo, matnni tarkiblash va tartiblash (kompozitsion qurilish) qonun- qoidalarining o'ziga xosligida, deyish uchun asos bo'ladi.

Matbuot, radio va televideniya qo'llanadigan turfa xil janriy toifalanish shundan dalolat beradi. Sahifaga ruknlar, sarlavhalar tanlashdan tortib, bezatishgacha bo'lgan amallar ham ayni mana shu tamoyil asosida bajariladi¹.

Demak, ommaviy muloqot uslubi aloqa sohasining sharoiti, mazmuni, maqsadi ehtiyojlariga muvofiqlashgan nutq; ziddiyatli va ko'p yo'nalishli xususiyatlarni mutanosiblashtirgan, uyg'unlashtirgan matniy qurilishga ega uslubdir. Ommaviy muloqot uslubiga xos yana bir xususiyat fikr ifodalashda (axborot berish - yangilik hamda uni talqin etish - baholash) nutqni umumlashtirish va xususiylashtirish -shaxslantirish omilining mavjudligidir.

Ommaviy muloqot vositalari tizimi namunaviy ijtimoiy karashlar, umumiy ma'noviy qadriyatlarning ko'pchilik tomonidan tan olingan va ma'qullangan mezonlariga asoslanadi. Ammo bu umumiy barqaror mezonlar, da'vatlar odatda voqelikdagi ayon bir voqea- hodisa misolida tartibga solingan, tahlil etilgan va qayta tahrir qilingan xususiy nutq ko'rinishida amalga oshiriladi. Bunday nutqiy vaziyatda axborot uzatish muassasasi vakili va nutqni yaratuvchi jurnalist shaxsi maqomidagi ziddiyatli xususiyatlarning ifodaviy uyg'unlashuvi talabi o'rta chiqadi. Ommaviy muloqot uslubida til va jamiyat hamda jamiyat va shaxs lisoniy munosabatlari muammosi mana shu asosda o'z ifodasini topadi.

Fikrimizcha, andozalilik va ta'sirchanlik hamda axboriylik va baholash tamoyillari o'zaro muvofiqlashadi. Adabiy va noadabiy, umumiy va shaxsiy, maromli va maromsiz vositalarning tanlanishida ham ifoda uslubining muloqot maqsadiga, axborot uzatish shakli va vositalariga muvofiqlashuvi, uyg'unlashuvi

¹ Qarang: Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. –T.: Tafakkur, 2010, 33-b.

mezoni yotadi. Demak, 1) lisoniy va texnikaviy vositalar imkoniyatlarining, 2) ifoda vositalari qo'llanishi va nutq qurilishi hamda muloqot maqsadi, mazmunining o'z ichida va o'zaro uyg'unlashuvi ham ommaviy muloqot uslubining muhim tamoyili sifatida namoyon bo'ladi.

Bu matn yaratilishidagi tezkorlik bilan uning fahmlanishidagi bir lahzalik (bu ham o'ziga xos tezkorlik!)ning ham mutanosiblashuvi hamdir. Til vositalarini tanlash va qo'llashda bu ikki jihat mezonlariga rioya qilinadi. Axborot til va tafakkur, til va jamiyat, til va ijtimoiy faoliyat mezonlaridan kelib chiqib kodlanadi. Bu umumiylik uni dekodlashni ham ta'minlaydi. Kodni o'zgartirish, yangilash o'quvchiga uni sharhlab, tushuntirib berishni ham taqozo etadi. Binobarin, jurnalistning tildan foydalanishidagi ijodkorligi (masalan, spirtsman, fikrogramma, saxronavt, kulgidrom kabi g'ayriodatiy ijodiy yasalmalar matn tarkiblanishida ham, kompozitsion qurilishda ham muayyan o'zgarishlarga, shaxsiy nutqiy ifoda usulini kiritishga olib keladi. Bu nutqiy-lisoniy yangilikni asoslash to'g'ri fahmlash ehtiyojini ham qondiradi.

Turli ijtimoiy toifalarga mansub so'z-atamalar, jargonlar, lahjaviy ifodalar, fan va texnikaga oid maxsus terminlarni qo'llashda ham mana shu talabdan kelib chiqiladi. Tanlangan begona yoki notanish kod (so'z) alohida sharhlanadi. Dastlabki o'zbek gazetalarida bu usul nihoyatda keng tarqalgan bo'lib, notanish so'z aksariyat hollarda asosiy axborotni tashuvchi gen tarkibida turli usul va shaklda izohlab borilgan. Shu boisdan matn tarkibidagi jumlalarning zimmasiga izohli lug'at vazifasi ham yuklanganday tuyuladi. Bu hol matn qurilishiga, jumlalarning tuzilishiga salbiy ta'sir qilgan. Bugungi kun matbuotida buning maqbul usullari ishlab chiqilgan bo'lib, matnning uzviy tarkibiy qismi tasavvurini beradi.

Ommaviy muloqot uslubida quyidagi ikki tamoyil raqobati ham ko'zga tashlanadi.

Birinchii tamoyil axborotning to'liq va batafsil ifodalanishi va adekvat fahmlanishini taqozo etadi. Shunga ko'ra matn mazmuni o'quvchida shubha va savol tug'dirmaydigan darajada mukammal ifodalanishi talab qilinadi. Bu hol

matniy muloqotda ortiqcha ifodalarni, takrorlarni, ayni bir fikrni turlicha shakl va yo'sinda bayon qilishni yuzaga keltiradi va bu ko'p so'zlilik, ezmalik sifatida baholanadi ham.

Ikkinchi tamoyil esa nutq (matn)ning qisqa, lo'nda va ravon bo'lishini, qisqa ifodada katta axborot uzatishni, "qisqalik- ta'sirchanlik" shioriga amal qilishni nazarda tutadi.

Bu jurnalistni til vositalarini (so'z va iboralarni, nutqiy ifodalarni) iqtisod qilishga, lisoniy tejamkorlikka undaydi. Oqibatda batafsillik va qisqalik, ortiqchalik va iqtisod qilish tamoyillari o'rtasidagi o'ziga xos raqobat yuzaga keladi.

Ommaviy muloqot uslubidagi bu ichki ziddiyat yangi so'z va iboratlarni, ifoda usullarini qidirishga, til va nutqning ko'p ma'nolilik, ko'p vazifadorlik imkoniyatidan unumli foydalanishga undaydi. Gazeta tili sinonimikasi va poetikasi mana shu omil ta'sirida shakllanadi va o'zgaradi.

Ommaviy muloqotning aloqaviy-uslubiy maqsadga muvofiqligi: 1) matn yaratilishi, 2) uni fahmlash va 3) matnni baholash sifatlari bilan uzviy bog'liq.

Muloqot qaysi shaklda ifodalanmasin u, eng avvalo, muayyan axborotni ifodalaydi. Bu axborot muloqot matnining butun to'qimasidan yaxlit holda anglashiladi. Ayni paytda axborotning tili va uslubi, ifodalanish tarzi ham muayyan ma'lumotlarni ifodalay oladi. Muloqot tili va uslubining o'zi axborot manbai vazifasini ham o'taydi. Bu nutq egasining tanlagan til vositalari va shu orqali voqelikka munosabatining ifodalanishidan kelib chiqadi.

Muloqotda tayyor nutqiy andozalarning, qoliplarning ishlatilishi jurnalist vazifasini osonlashtiradi. Chunki ular o'ylab o'tirishni, yangi ifoda izlashni, nutq andozasini yangilashni talab qilmaydi. Taqvimiy (xronikal) xabarlar ayni mana shunday vositalar asosida yaratiladi.

Ammo jurnalistning shaxsiy ifoda usuli, muloqotda turfa xil vositalarni tanlash va tarkiblash yo'sini ayni bir axborotga har xil mazmuniy tovlanishlarni, qo'shimcha ma'lumotlarni olib kiradi. Bu xususiyat axborotni talqin etish, o'quvchiga ta'sir etish va ishontirish nuqtai nazaridan ham, ijtimoiy-mafkuraviy

talqinni yangicha yo'nalishda taqdim etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo muloqot matniga olib kirilgan bunday yangi mazmun unsuri nutqni murakkablashtiradi ham. Shu bois bunday hollarda o'rtacha yo'l tanlash talab qilinadi. Muloqotning shaxsiy ijodiy jihati uni faxmlash asnosiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Matn mazmuni tushunchasi matnni tushunish tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Matn mazmuni muloqot jarayonida, uni tushunish mazmunni egallash, qayta fahmlash jarayonida yuzaga keladi. Matnning o'zi muloqot ishtirokchilariga xizmat qiluvchi axboriy vosita sanaladi. Muloqot ishtirokchilarining uni turlicha talqin etishi muloqot jarayonida yuzaga keladi. Matn talqinidagi variantdorlik uning yaratilishi (tarkiblanishi, tartiblanishi) bilangina emas, fahmlanishi jarayoniga ham bevosita dahldor. Shu ma'noda matn mazmuni u haqidagi tasavvurlarning murakkab majmui hamdir. Ommaviy matniy muloqot o'quvchilarda adekvat mazmuniy tasavvur hosil qilishi lozim. Ammo matnni yaratish va axborotni fahmlash ko'p yo'nalishli jarayon. Matn qurilishi yaratish asosiy yo'nalish bo'lib, bu jarayonda jurnalist va o'quvchi o'zaro hamkorlik qiladi. Boshqacha aytganda, matn yaratilishiga, uning tuzilishiga, lisoniy-uslubiy xususiyatlar o'quvchi omilining bevosita ta'siri bo'ladi¹.

Ayni paytda, matn yaratish asnosida jurnalist o'quvchini uni fahmlash, talqin etish jarayonini "boshqarish"ni e'tiborda tutmog'i lozim. Bunda, o'quvchi xotirasini, tasavvurlarini tiklovchi, axborotga dahldor bilim tajribalarini yodga soluvchi ifodalarni qo'llash, murojaat qilish, lisoniy bilim va nutqiy malakasini faollashtirish kabi vosita va usullardan foydalanishi mumkin.

Adresat bilan baqamti muloqot (personifikatsiya tasavvurini tug'diruvchi omillar va sharoitlar (tasvirlash ashyosi, aloqa vaziyati, narsa, hodisaga munosabati), muloqotning amalga oshishi - kechish asnosi maromlari (matn turi, uning qurilishi yoki bo'laklanishiga, nutq amallari)ga oid qaydlar, sharhlar ham axborotni fahmlash jarayonini boshqarishga xizmat qiladi. Masalan, matnning

¹Qarang: Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. –T.: Zar qalam, 2006, 88-b.

"Aziz o'quvchi, sarlavhani o'qib hayron bo'lishingiz tabiiy..." qabilida boshlanishining o'zi o'quvchi tasavvurini, fahmlash jarayonini boshqarish vazifasini ham o'taydi.

E'lon tilidagi bir qolipdagi lisoniy ifodalar odatda so'zlovchining suhbat asnosida nutqiy faoliyatini rejalashtirish, tartibga solish, muayyan maqsadga yo'naltirish kabi vazifalarni bajaradi. E'lon rejalashtirilgan faoliyatning bajarilishi uchun umumiy asos yaratadi. ("Men bugun yangi mavzuni o'taman" e'loni o'qituvchining keyingi faoliyati harakterini ma'lum qilish).

Material matnida bu xil vosita va usullardan foydalanish me'yori va maromi jurnalistni adresatning axborotni tushunish va talqin etish imkoniyatlarini oldindan chamalay olish mahoratiga bog'liq. Bunday malaka va mahorat muayyan matn turini hamda uning umumiy amaliy-axloqiy ko'lamini va ruhini yaratishga imkon beradi.

Gazeta axborotini tushunish matn (mikrotuzilishlari) qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlarini aniqlashdan boshlanadi. Chunki gazeta matnining har bir qismi muayyan hajmdagi axborotni ifodalaydi va ular o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'ladi. Bu o'quvchiga o'zi uchun muhim bo'lgan qismni va bu qismdan anglashilgan axborotni ajratib olish hamda xotirada saqlash imkonini beradi. O'z navbatida, gazeta makromatnining yangi axborot ifodalovchi qismlarining tuzilish va tarkiblanishidan muayyan matn turiga yoki janrga mansublik sezilmasligi ham mumkin.

Badiiy matnni fahmlashda esa o'zgacha hol kuzatiladi. Unda o'quvchi dastlab matnning bir butunligini, yaxlitligi va tizimlilik, so'zma-so'zligini, matn tarkibiy qismlarining yaxlit bir vujud ekanligini fahmlaydi.

Gazetada, ma'lum darajada, televideniya ham, matn mazmuni haqidagi dastlabki umumiy, taxminiy ma'lumotni o'quvchi eng avvalo, sahifadagi "shapka", shior, rukn, sarlavhalar majmuidan oladi. Badiiy nutqda bu vazifani kitob muqovasi, annotatsiya va mundarija o'taydi. Bu sohada gazeta imkoniyatlari ancha keng va xilma-xildir. Ularning 4 asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ba'zi gazetalarning birinchi sahifasida "Bu sonda" yoki "Keyingi sonda" unvoni ostida muhim mavzuga oid materiallar mundarija yoki tezis-sharh shaklida ko'rsatib boriladi. Bu xil dastlabki umumiy ma'lumot manbai asosiy matndan tashqarida sahifa mundarijasi maqomida qayd etiladi. Bunday tajriba "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Oila va jamiyat", "Mulkdor" kabi gazetalarda tez-tez ko'zga tashlanadi. "Keyingi sonda" deb berilgan ma'lumot gazetaning navbatdagi soniga bo'lgan qiziqishni orttirishga yordam beradi.

2. Gazeta sahifasidagi umumiy shior, shapka-sarlavhalar ham sahifadagi materiallar mazmuniga ishora qiladi, gazeta matnlarining umumiy mavzui va mazmuni haqida umumiy ma'lumotni ifodalaydi. Rasmiy siyosiy matnlarga sarlavhaning shapka, shior shaklida qo'yilishi hollari materialning muhimligini, dolzarbligini ta'kidlaydi.

Rukn-sarlavha esa bir nechta axborotning mavzu va mazmun umumiyligi xususida ma'lumot beradi. Gazeta sahifasidagi shapka va ruknlar mohiyat e'tibori bilan sahifadagi materiallarni umumlashtirish va guruhlariga ajratish orqali sahifa mazmuni haqida ham ma'lum tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

3. Sahifadagi ma'lum material matni asosiy (tepa) sarlavhasi matn mazmuniga oid umumiy tasavvurni yanada ayonlashtirishga, aniqlashtirishga xizmat qiladi. Sarlavhadan anglashilgan dastlabki ma'lumotning u nomlagan matnga bevosita tegishli ekanligini ta'kidlaydi.

4. Gazetada matnga majoziy- timsoliy ifodalarning, metaforik so'z va so'z shakllarining, ibora yoki maqollarning sarlavha sifatida tanlanishi ommaviy muloqotning muhim xususiyatlaridan sanaladi. Bunday sarlavhalar mazmunini, undan anglashilgan ma'lumotni ayonlashtirishda o'quvchiga sarlavha osti sharhlari (anshlag) va matn ichki sarlavhalari ham dastlabki axborot manbai vazifasini o'taydi.

Yuqorida tilga olingan dastlabki ma'lumot manbalarini jamlab bir butun majmua (sarlavhalar kompleksi) sifatida berish va bezash tajribasi urf bo'lib bormoqda.

Bugungi kun matbuotida sarlavhalar majmuining har bir unsurini (umumiy sarlavha, rukn, sarlavha va sarlavha sharhi) joylashtirish tartibi, tasvirlash (shrift va rang) usullari turfa xil bo'lib tahririyatdan ijodiylikni, topqirlikni talab qiladi. Dastlabki ma'lumot majmui unsurlari bir-birini to'ldiradi, axborot hajmini oshiradi hamda ommaviy matniy muloqotning o'ziga xos unvoni maqomini kasb etadi¹.

Gazeta axborotini tushunish to'xtalishlarsiz beixtiyor (avtomatik) yuz beradi. Chunki gazetada tushunilishi qiyin bo'lgan ifodalar, o'quvchini o'ylashga, matnni qayta yig'ishga majbur qiladigan tugunlar, ikki xil talqin etiladigan o'rinlar qoidaga muvofiq uchramaydi. Yangi va g'ayriodatiy qo'llanishlarning barchasi gaplar doirasida uchraydi va aksariyat hollarda qo'shimcha vositalar (sharhlar, izohlar) yordamida ayonlashtiriladi, asoslanadi. Binobarin, gazeta matni o'quvchidan yuqori darajadagi lisoniy bilim va malakani talab qilmaydi. Sababi ommaviy matniy muloqot o'rtacha malakaga ega lisoniy -nutqiy auditoriyaga mo'ljallab yaratiladi. Ilmiy, hatto, badiiy matnlarni tushunish o'quvchidan ma'lum malakani, saviya va tajribani talab qiladi. Ilmiy tushunchalar va maxsus ifodalar silsilasi, majoziy timsoliy fikrlash tarzi shuni taqozo etadi. Ayni bir badiiy matn (asar)ni, uning g'oyaviy-maqsadini o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi va baholanishi tabiiy bir holdir. Ammo bu xususiyat ommaviy matniy muloqotda fazilat sanalmaydi.

¹Qarang: Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2012, 237-b.

II BOB.

“HURRIYAT” GAZETASININGTILI VA USLUBI

2.1 “Hurriyat” gazetasining janriy-uslubiy o‘ziga xosligi.

Jamiyatni erkinlashtirish, demokratik tamoyillarning keng yoyilishi va chuqur ildiz otishi uchun ko‘maklashishga da‘vat etilgan ijodiy jamoa – ommaviy axborot vositalaridir. Tahririyatlarda shu ruh keng namoyon bo‘lishi kerak, degan fikrdamiz. Jurnalistlar boshqa kasb egalariga nisbatan erkinlikka ko‘proq intiladi hamda jamiyatda o‘z qarashlari bilan faollik ko‘rsatishadi.

“Tahririyatlarda shunday vaziyatni vujudga keltirish lozimki, har bir ijodiy xodim o‘z fikr- mulohazalarini, har qanday sharoitda ham, ochiq- oydin aytaveradigan bo‘lsin. Zero bir qolipdagi yoki tayyor andozalardagi gaplar ijod kishisining avvalo dilini, so‘ngra esa nigohini ham so‘qir qilib qo‘yadi.”¹ deb ta’kidlaganlar Ismoil Sulaymonov ham o‘z risolalarida. Biz “Hurriyat” mustaqil gazetasini mana shunday erkin ijodiy muhit shakllangan tahririyatlardan deb, ayta olamiz.

Muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to‘qqizinchi sessiyasida qilgan ma‘ruzalarida so‘z va matbuot erkinligi jamiyatni rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqqanligini ta’kidladilar. Ma‘ruzada ta’kidlanganidek: “Erkin matbuot real vaziyat sharoitida faoliyat ko‘rsatishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning dolzarb muammolarini dadil ko‘tarib chiqishi, odamlarni bezovta qilayotgan barcha masalalarni jamoatchilik muhokamasiga havola etish, hokimiyat va boshqaruv tuzilmalarining qabul qilayotgan qarorlari va faoliyatiga tanqidiy, shu bilan birga, xolis baho berib borishi kerak”²

“Hurriyat” gazetaning ikki yillik faoliyatini kuzatish jarayonida ushbu fikrlar aynan mazkur gazeta yo‘nalishiga tegishli ekanligiga amin bo‘ldim. “Hurriyat” gazetasi O‘zbekistonda yagona bo‘lgan mustaqil gazetadir. Ushbu gazeta

¹Sulaymonov I. Tahririyat – ijodiy jamoa// Men jurnalistman. – T.: Sharq, 2001, 19-b.

²Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2009, 175-b.

muhtaram prezidentimizning tashabbuslari bilan mustaqilligimizning ilk yillarida, ya'ni 1996-yilning 10-dekabrida tashkil etilgan. "Hurriyat" mustaqil gazetasini tom ma'noda mustaqillikni ma'naviy jihatdan mustahkamlashga katta hissa qo'shadigan, o'z o'quvchilarida mustaqil fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olishlariga katta ko'mak beradigan gazeta deyish mumkin.

"Hurriyat" mustaqil gazetasining ilk sonlaridanoq mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratilgan maqolalar chop etila boshlandi. O'sha yillar Xurshid Do'stmuhammad, Ahmadjon Meliboyev, Ne'mat Rafiqov, Abduqayum Yo'ldoshev, Gulchehra Umarova, Ahmad Otoboyev, Rahmon Qo'chqor, Amirqul Karimov, Xayrulla Umarov, Tursunali Akbarov, Zohidjon Haydarov, Abdukarim Rahimberdiyev, Mahmud Abulfayz, Hamidulla Akbarov, To'lqin Eshbekov kabi jurnalistlarning jamiyatning turli masalalariga bag'ishlangan bir qator maqolalari e'lon qilib borilgan.

1996-1997 yilgi ilk sonlarini kuzatganimizda aksariyat maqolalarning tanqidiy ruhda ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'z ona tilimizda so'zlashish masalalari, mansabini suiste'mol qilgan shaxslar kirdikorlarini fosh etish muammolari tanqidiy maqolalarning bosh mavzusiga aylangan. Masalan, muallif Zarafshon Qalandarovning "Kotibangiz o'zbekcha gapiradimi?", Baxtiyor Shohnazarovning "Fuqaro emas vatandosh", Safar Ostonovning "Iste'foga chiqish bilan dog'ni yuvib bo'lmaydi", Xurshid Do'stmuhammadning "Illat" kabi tanqidiy maqolalari yuqorida keltirilgan mavzulardagi materiallarga misol bo'la oladi. O'sha paytlarda barcha gazetalar ichida charaqlab chiqqan "Hurriyat" gazetasining tanqidiy maqolalar yozishni o'z uslubiga aylantirgan deyish mumkin, gazeta sahifalarining nomlanmaganligi, sahifa nomlari o'rniga gazeta nomi yozilishi, maqolalar mualliflari matnning oxirida emas, boshida yozilganligi ham gazetaning o'ziga xos uslubini belgilagan edi. Gazetaga rahbarlik qilgan har bir muharrirning ham o'ziga xos uslubi bo'lib, bu davrlarda turli xil rang barang maqolalar o'quvchilarga taqdim etilgan. Xurshid Do'stmuhammad, Amirqul Karim, Ismat Xudoyorov, Abdusalom Jumayev, Zafar Saidov,

bugungi kunda O'ktam Mirzayorov kabi kuyunchak muharrirlar "Hurriyat" mustaqil gazetasining tashkil etilgandan to hozirgacha bo'lgan rahbarlaridir.

"Hurriyat" gazetasi biror bir tashkilot yoki partiya hayotiga oid maqolalarni yozish bilan cheklanib qolmaganligini ko'rishimiz mumkin. U mustaqil gazeta bo'lib, cheklanmagan doiradagi auditoriyaning xohish-istagidagi, barcha sohalarga ta'alluqli bo'lgan maqolalarni berib boradi. Bu ham gazetaning alohida uslubga ega ekanligini belgilaydi.

Bugungi kunda ham ushbu gazeta o'z o'quvchilariga ega bo'lgan boshqa gazetalardan farq qiladigan uslubiga ega. Gazeta 8 sahifadan iborat bo'lib, "Vatan siyrati", "Jarayon", "To'rtinchi hokimiya", "Dunyoda nima gap?", "Qadriyatlarimiz", "Ko'ngil gulshani", "Nigoh" kabi nomlar bilan ataladi. Bu nomlar o'zgaras sahifa nomlaridir. Bundan tashqari "Tabriklar", "Reklama" kabi o'zgaruvchan sahifalarga ega.

"Vatan siyrati" sahifasida mustaqil vatanimizni madh etuvchi, undagi haftalik yangi voqealardan darak beruvchi maqolalar beriladi. "Jarayon" sahifasi ham avvalgi sahifaning uzviy davomi sifatida O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, qilinayotgan tub islohotlar haqidagi maqolalarga ajratilgan. "To'rtinchi hokimiyat" sahifasi bevosita jurnalistika kasbi sinoatlariga, jahon OAV siga, sohada bo'layotgan o'zgarishlar, joriy etilayotgan yangi texnologiyalar, qabul qilinayotgan OAV to'g'risidagi qonunlarni yoritishga bag'ishlanadi. Masalan: 2012-yil 18-yanvar sonidagi muallif Shavkat Miralimovning "O'zbek jurnalistikasi istiqbollari", "Matbuotning noni" (Muallif Jamila Ergasheva 2012-yil 8-fevral), "Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarva ularni huquqiy tartibga solish zarurati" (Muallif Sanjarbek Toshboyev), 2013-yil 18-sentabr sonidagi muallif Yo'lchi Muhammadiyevning "Jurnalist bo'lish oson emas", muxbir Mohira Otaboyevaning "Biz bilgan va bilmagan Pulitser", 20- oktabr sonidagi muallif Yusuf Hamdamovning "Faktni gapirtirish mahorati", 9-oktabr sonidagi Muxtabar Xusanovanning "Siyosiy partiyalar nashrlari – demokratik islohotlar ko'zgusi" kabi maqolalari ushbu sahifaning sara materiallaridandir.

“Dunyoda nima gap?” sahifasi xalqaro sharhlarni, “Daraklar” rukni ostidagi doimiy jahon yangiliklarini oʻz ichiga oladi. Bir-biridan qiziqarli xalqaro sharhlarni mualliflar Abduvali Saybnazarov, Faxriddin Nizomovlar yozishadi. Ushbu sahifa gazetaning eng yaxshi sahifalaridan biridir. “Nigoh”, “Koʻngil gulshani”, “Qadriyatlar” kabi sahifalarda ham bir-biridan maʼnoli maqolalar berilib, dolzarb muammolar koʻtariladi.

Shuningdek, “Chorshanbadan chorshanbagacha” rukni ostida gazetaning birinchi sahifasida, asosan, Oʻzbekistonda, qisman jahonda yuz berayotgan haftalik xabarlar oʻzgacha uslubda berib boriladi. (Jahon xabarlariga alohida sahifa ajratilgan), “Bilmaganni bilgan yaxshi” rukni ostidagi yuridik mavzudagi savol-javoblar oʻquvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bular gazetani boshqa ijtimoiy-siyosiy nashrlardan ajratib turadigan yana bir muhim jihatidir.

Gazeta uslubi oʻziga xos tarixiy- ijtimoiy asoslar va anʼanalariga, axboriy koʻlam va uni uyishtirish va uzatishning usul va shakllari hamda qonuniyatlariga ega. Uning matniy qurilish usullari va shakllari turfa xil janrlar bilan uzviy bogʻliq. Zero, har qanday nutq uslubi muayyan janrlarda ifodalanadi. Ommaviy muloqot uslubi boy janrlar silsilasiga ega boʻlib, ularning har biri oʻziga xos matniy qurilish tartiblari orqali tavsiflanadi.

Jurnalist dolzarb mavzuni tanlash, ishonchli faktlarni topish va qayta ishlash jarayonida uning eng maqbul ifoda shaklini ham tanlaydi. Ifodaning bu shakli va uslubi janr hisoblanadi. Bu jarayon jurnalist mahoratiga daxldor, chunki nutqiy ifoda qurilishi asosiy maqsadni oʻziga xos rejalashtirish va boshqarish tizimi vazifasini oʻtaydi.

Janrlar tasnifi asosida ularning matniy qurilishdagi oʻziga xoslik yotadi. Muayyan janrdagi axborot gazeta uslubi doirasida alohida xususiyatlarga ega boʻlgan jurnalist ijodining alohida bir turi hisoblanadi. Janr tahlili shakl orqali mazmunni tushunish demakdir.

Har bir janr vazifasi va imkoniyatlarini anglash hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy muloqot samaradorligini taʼminlashga, muloqot

usullarini takomillashtirib borishga xizmat qiladi. Ommaviy muloqot uslubidagi janrlar tizimini inkor etish, matn qurilishidagi axborot ifodalash usullaridagi qonuniyatlarni mensimaslikka olib keladi, jurnalist mahoratiga qo'yiladigan talabchanlikni pasaytiradi¹.

“Hurriyat” mustaqil gazetasida barcha janrdagi maqolalar uchraydi. Xabar, maqola, intervyu, sharx, ocherk, esse, feleton va badialar shular jumlasidandir. “Chamandagi “shumg’iya”lar” feleton (Muallif Abdulla Sobirov 2012-yil 1-avgust), “Ustyurt dostoni” esse (Muallif O’rozboy Abdurahmonov 2013-yil 22-avgust), “Chinakam ziyoli edi” ocherk (2013-yil 22-may), “Yozmasa turolmaydi” hajviya (Muallif Bardi Jumaniyozov 2013-yil 9-oktabr), “Vaqt- bebaho ne’mat” maqola (Muallif Abduvahob Tohirov) “Hurriyat” Jurnalistlar ijodiy uyushmasi muassisligida chop etiladigan gazeta bo’lganligi sababli ham undagi ijodiy guruh zimmasiga ulkan mas’uliyatni olgan holda astoydil mehnat qilishadi. Ular yozgan maqolalar qaysi janrda bo’lmasin jurnalistlarga namuna bo’ladigan, ma’lum ma’noda ularga maktab bo’ladigan salohiyatga ega. Maqolalar ichida tanqidiylari ham bo’lib, gazeta sahifalarida tez-tez berib boriladi. Bunday xolis va to’g’ri tanqid asosidagi maqolalar ko’pgina ijtimoiy-siyosiy nashrlardan farqli ravishda berib boriladi. Masalan, 2013-yil 30-yanvardagi muxbir Fozil Jabborovning “Tong bilan yo’rgaklangan gazetalar”, 5-iyun sonida muallif Bardi Jumaniyozovning “Savodsiz qalamkash va no’noq noshir haqida bor gaplar”, 25-dekabr sonidagi Alijon Zohidiy qalamiga mansub “Esiz qog’oz, esiz mehnat”, 17-oktabr sonidagi muxbir Fozil Jabborovning “Madadga muhtoj madaniyat uyi”, 2012-yil 6-iyun sonidagi “Suv loyqami yoki bulg’angan” (Muallif Ulug’bek Ro’zimatov) kabi tanqidiy maqolalari e’lon qilingan.

Gazetada keyingi yillarda adabiy tarjima asarlar, jumladan , suhbatlar, adiblarning maktublari va kundaliklaridan parchalar ham berib borilyapdi. Umuman olganda yozuvchi va shoirlarning ma’naviy olamini ko’rsatishga harakat qilinyapdi. Bu kabi uslubiy o’ziga xoslik uni boshqa ijtimoiy- siyosiy

¹Qarang: Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. T.: Zar qalam, 2006. 88-b.

gazetalardan ajratib turadi. “Hurriyat” ning 2013-yil 27-fevral sonida e’lon qilingan muxbir Fozil Jabborovning “Shukur Xolmirzayev kundaligidan”, gazetaning 31-iyul sonidagi muxbir Akmal Jumamurodovning “Tuyg’ular tajassumi” (Narimon Latipov kundaligidan) nomli maqolalari aynan shu mavzudagi maqolalardir.

Hammamizga ayon bo’lishi kerakki, "axborot asri" deb nom olgan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o’zini temir devor bilan o’rab yashay olmaydi. Ayni paytda, ahvol shunday ekan, deb qo’l qovushtirib o’tirish ham to’g’ri kelmaydi. Bunday tahdidlarga javoban, gazeta muxbirlari - Bobur Muhammadiyev, Akmal Jumamurodov, Fozil Jabborov, Mohira Otaboyeva, Setora Tojiddinova, Azim Ro’ziyev, Matyoqub Narziyev, singari jurnalistlar ma’naviyat va boshqa bugungi kundagi dolzarb masalalarga bag’ishlangan maqolalar bilan o’z chiqishlarini amalga oshirishmoqda.

Boshsiz odam, darvozasiz qal’a, suvsiz hayot bo’lmaganidek, sarlavhasiz maqola ham bo’lmaydi. Demak, shunday ekan, asar va maqolaning nomi yoritiladigan maqolaning mazmuni va mohiyati, xarakteri va belgisi bilan uzviy bog’liq bo’lmog’i kerak. Sarlavha gazeta va jurnalning eng muhim omili hisoblanadi.

Mavzuning aniqligi, ifodalarning ixcham, qiziqarliligi, izchil va sermazmunligi, sarlavhalarining jozibadorligi gazetaning mazmuniga mazmun qo’shib, o’quvchilar diqqatini o’ziga ohanrabodek tortadi. Sarlavhalar bir qolip asosida shakllanmasdan, turli xil shaklda va ko’rinishda bo’lishi gazetxonni zeriktirmaydi. Shu bilan birgalikda ularda no’rinli foydalanish ham talab qilinadi. Gazetaning o’qishli, rang-barang mavzudagi maqolalarga boy qilib chiqarilishi, albatta, tahririyat xodimlariga bog’liq, eng asosiysi uni nazorat qilib turuvchi, tepasida bosh-qosh bo’lgan bosh muharrir zimmasida. Ular gazeta hayot oynasi ekanligini unutmasliklari kerak.

Ayni paytda rukn va sarlavhalar o’zaro munosabatdadir va ular birgalikda sarlavhalar majmuini tashkil qiladi. Bu esa gazeta sahifalarini bezashning asosiy vositalari sirasiga kradi. Xuddi shu o’rinda gazeta sahifalarini bezashning estetik

tamoyillari va talablari, usullari va vositlari bilan bog'liq muammolar kelib chiqadiki, bular alohida tadqiqotni talab qiladi. Ammo biz bu masalaga qisqacha, imkon qadar to'xtalib o'tdik.

"Hurriyat" da sarlavha qo'yish mahorati bu – alohida mavzu. Ixcham, ohorli, ayni bir paytda, yuqorida qayd qilganimizdek, biroz g'alati, noan'anaviy sarlavhalar kishi qalbiga dildorlik bilan yo'l topib, ruhini ajib sirli-sehrli hislarga oshno etadi: "Burgani taqalagan jo'qi" (Muallif Shodmonqul Salom, 2013-yil 27-noyabr), "Ota o'gitini unutgan odam" (Muallif Abduljalol Taypatov, 2013 yil 18-sentabr, 39 son), "Avvalo fidoiy inson bo'l" (Muallif Halim Sayid, 2013 yil 2-oktabr, 41son), "Insoniylikni kim o'rgatadi?" (Muallif Oybuvi Ochilova, 2012 yil 13-iyun), "Darz ketgan odamlar" (Muallif Saida Sayxun, 2012-yil 11-iyul), "Tulporning yoliga bog'langan ko'ngil" (Muallif Shohista Ortiqova, 2013-yil, 23-yanvar) umuman, gazeta sahifalaridagi har bir maqolaning nomlanishida qandaydir ohanrabo bor. Bu sarlavhalarni o'qigan o'quvchi, albatta, maqolani ham o'qib chiqishi aniq.

Eng avvalo, bir o'quvchi, gazetxon sifatida aytish joizki, gazetadagi qiziqarli va rang-barang ruknlar diqqatni tortadi: "Ustaxona", "Qaror va ijro", "Qiyofa", "Qilmish", "Uchrashuv", "Taqdir", "Qiziq", "Tarix", "Tarix va bugun", "Fikr", "Yorug' niyat", "Yoshlar hayoti", "Qancha bilsak shuncha oz", "Qadriyat", "Qishloq odamlari", "Qonun barchaga barobar", "Qutlov", "O'git", "Uchrashuv", "Talqin", "O'ylab ko'ring!", "O'tmish saboqlari", "Muammo", "Xilqat", "Badia", "E'tirof", "Mulohaza", "Mushohada", "Bu sirli olam", "Ma'naviyat", "Moziy", "Tabiat va inson", "Yaxshilik", "Ibrat", "Munosabat", "Muruvvat", "Aks-sado", "Fikr", "Axloq", "Ezgulik", "Biz bilgan va bilmagan tarix", "Madaniyat", "Inson manzaralari", "Siyrat va suvrat", "Surat va siyrat", "Tabobat", "E'zoz", "Oramizdagi odamlar", "Kechmish", "Xolis fikr", "Bugunning gapi", "Dil izhori", "Sharaf", "Turmush chorrahalarida", "Shaxsiy fikr", "Suhbatdosh", "Mulohaza uchun mavzu", "Safar", "Maslahat", "O'ylab ko'ring", "Jiddiya", "Xabardor

bo'ling", "Gap egasini topsin", "Bor gap", "Muhokama, mulohaza, munozara", "Ha-yot".

O'ylab ko'rilsa, aksariyat ruknlar nomi odatiylikdan biroz farq qiladi, bir qarashda erish tuyuladi. Ammo chuqurroq mulohaza yuritadigan bo'lsak, ayon bo'ladiki, aynan shu noodatiylikda gazetaning o'ziga xosligi, "muhri" bor. E'tibor berilsa, yuqorida keltirilgan ruknlarning nomlanishida ozgina mahzunlik, sergaklik, dilovarlik bor. Bu kishida o'zgacha qiziqish uyg'otadi. Gazeta sahifalariga ko'z yugurtirish asnosida qalbingiz orom oladi. E'tiborlisi, xuddi shu ruh, kayfiyat ruknga jam bo'lgan maqolalar mutolaasi chog'ida ham o'quvchini tark etmaydi.

Ayni paytda rukn va sarlavhalar o'zaro munosabatdadir va ular birgalikda sarlavhalar majmuini tashkil qiladi. Bu esa gazeta sahifalarini bezashning asosiy vositalari sirasiga kiradi.

Bu gazeta o'quvchilariga chuqur nazariy masalalar, g'oyaviy, ilmiy muammolar orqali murojaat qilmaydi. Balki, avvalo madaniy xordiq chiqarishlarini ko'zlab, shunga muvofiq sahifalar tayyorlaydi, hazmi osonroq mavzularda bahs yuritadi. Ehtimol o'quvchilari endi shakllanib kelayotgani uchun shunday yo'l tutilayotgandir, ammo hozir gap bunda emas. Hammamizga ma'lumki, gazetalarning aksariyati qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lishidan qat'i nazar uning sahifalarida adabiy-badiiy mavzudagi maqolalar, adabiy janrlardagi asarlar muntazam ravishda e'lon qilib boriladi. "Hurriyat" mustaqil gazetasi ham o'quvchilarning talab va istaklardan kelib chiqib, "Ko'ngil gulshani", "Nigoh" kabi sahifalarida vaqti-vaqti bilan adabiy-badiiy mavzudagi maqolalar, yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodi haqida izlanishlar, suhbatlar e'lon qilib boradi. "Spektakllarim mening bolalarim" (Munavvara Abdullayeva bilan suhbat) (muallif Setora Tojiddinova 2013-yil 15-mart), "San'at saodatimdir" (Sanobar Rahmonova bilan suhbat) (Muallif Maryam Ahmedova 2012-yil 22-avgust), "Sog'inch jilolari" (Nosir Jo'rayev ijodidan) (Muallif Shoir Ahmedova, 2012-yil 13-iyun), "Bolalardan o'rganaylik samimiyatni"

(Muallif Sayyora Bekmirzayeva 2012-yil 16-may) badiasi, "Abadiy davradosh" (Maqsud Shayxzoda yodi), (Muallif Toshpo'lat Ahmad, 2012-yil 11-iyul) kabi materiallar shular jumlasidandir. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlariga e'tibor kuchayayotgan bir paytda "Hurriyat" gazetasi uslubida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini yoritish alohida ahamiyat kasb etdi. Gazeta NNTlar faoliyatini yoritgan eng yaxshi gazeta yo'nalishi bo'yicha diplom bilan ham taqdirlangan. "NNT lar rivoji yo'lida" (Muallif Kamol Allayorov 2012-yil 1-sentabr), "Fuqarolik jamiyati taraqqiyoti" (2013-yil 13-fevral), "Mahalla – oilaviy biznes markazi" (2013-yil 15-may), "Ayollar huquqi va ma'rifati doimiy e'tiborda" (2013-yil 5-iyun) kabi maqolalar aynan NNT lar faoliyatidan so'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Hurriyat" gazetasining o'quvchilari soni kun sayib oshib bormoqda. Gazetaning o'quvchilari ko'payayotganini tahririyatga kelayotgan maktublardan ham bilib olsa bo'ladi. Ayniqsa, jamiyatdagi turli masalalarga bag'ishlangan maqolalarni o'qib, mulohaza yuritayotgan gazetxonlarimizning soni kundan-kunga ortmoqda. Masalan, 2012 yilning 1-fevral sanasida "Hurriyat" muxbiri Inomjon Abdiyevning "Seriallar ortidagi illat" sarlavhali mulohazali maqolasi e'lon qilingan. Unda g'arb davlatlari seriallarining yurtimizda namoyish etilishi va undagi mentalietimizga mos kelmaydigan sahnalarning ko'pligi, ularning tomoshabinga, xususan, yoshlarga salbiy ta'siri haqida so'z boradi. Ushbu maqolani Bahriddin Mingboyev "Sado" gazetasida tanqid ostiga oladi. "Hurriyat"ning 2012-yil 25-aprel sonida maqola muallifi unga "Ochiq xat" rukni ostida ""Sado"ga aks-sado" nomli maqolasida javob yo'llaydi va unda o'z fikrlarining to'g'ri ekanligini dalillar bilan izohlaydi. Bundan ko'rinadiki, gazeta doimiy e'tiborga. Muxbirlar maqtovni ham, tanqidni ham to'g'ri qabul qilishmoqda.

Hozirda mamlakatimizda nashr etilayotgan ko'plab mustaqil bosma nashrlar ichida "Hurriyat" gazetasi faol, o'z o'rni va ta'sir kuchiga ega

bo'lgan gazetadir. U hajmi, dizayni maqolarning mazmuni va jurnalistik mahorat masalasida matbuotimiz tarixidagi o'ziga xos to'liqning mantiqiy davomi o'laroq paydo bo'lgan, "Hurriyat" nisbatan yosh va xali-hanuz shakllanish bosqichini kechirayotgan gazeta. Shu bois, u haqidagi pishiq-puxta, salmoqli tadqiqot-maqola, yoki, biron risola, kitob yo'q. "Hurriyat" mustaqil gazetasining tashkil etilganidan to bugungacha bo'lgan faoliyati tom-tom kitob bo'lishga loyiqdir.

2.2 “Hurriyat” gazetasining lisoniy o’ziga xosligi

Sharqda qadimdan shaxsning lisoniy salohiyati nutqiy malakasi va mahoratiga qarab, uning balog’at yoki fasohat ahliga mansublik maqomini belgilaganlar. Hozirgi zamonda sotsiolingvistlar kishilarning tilidan to’g’ri, maqsadga muvofiq foydalanish malakasi, matn yaratish va matnlarni tushunish iqtidori bilan bog’liq lisoniy shaxs tushunchasini istifodagi kiritmoqdalar. Shaxsning lisoniy o’zlikni anglashi esa butun xalqning ma’naviy- madaniy o’zligini anglash jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Til milliy madaniyatning barcha sohalarini qayd etuvchi ko’p qirrali obida.

Kishining lisoniy salohiyati uning muloqotda ishtirok etish uchun o’z tili haqida bilishi lozim bo’lgan bilim, tajriba, malaka va mahorat majmuidir. Lisoniy salohiyat nutqiy muloqotni amalga oshirish va uni tushunish imkoniyatidir. Nutqning tug’ilishi, matnning yaratilishi sintaktik qurilish asosidagina emas, balki mazmuniy kategoriyalarni tanlash asosida amalga oshiriladi. Shaxs nutq vaziyati sohibi sifatida u vaziyatni o’zgartirishi, muloqotga- matnga o’zgacha ruh, o’zgacha yo’nalish berishi mumkin.

Muloqotda nutqiy vaziyat omili (ijtimoiy omil) nutq qurilishini, ifodalanish usulini ham, nutq ohangi, tezligini ham o’zgartiradi. Nutq vaziyati muloqot ishtirokchilari munosabati asosida yuzaga keladi. So’zlovchi (yozuvchi) va tinglovchi (o’quvchi)larning lisoniy salohiyatlari nutqiy malakalari va nutqni tushunish iqtidorlari bilan bog’liq umumiy tasavvur va bilimlar muloqot vaziyati xarakterini belgilaydi. Muallif uslubiga xos g’ayriodatiy ijodiy qo’llanishlar, okkazional yasalmalar esa muloqot vaziyati yoki matn tarkiblanishi asosida fahmlanadi. Bu esa jurnalist zimmasiga muloqot vazifasi, axborot qiymati, ahamiyatinigina emas, balki nutqning qurilishini, ifodalanish yo’sinini rejalashtirish va maqsadga muvofiq tarzda, ta’sirchan va qiziqarli shaklda yuzaga chiqarish mas’uliyatini ham yuklaydi. Ommaviy axborotning ijtimoiy yo’naltirilganligi tushunchasi kommunikatorning 1) aloqa maqsadi va vaziyatini belgilash, 2) suhbatdosh (adresat tasavvuri)ni tanlash, 3) nutq qurilishi va usulini tanlash va 4) bu amallar asosida muloqotni amalga oshirishni o’z ichiga oladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ommaviy muloqotda jurnalistning tahririyat yoki ijtimoiy muassasa vakiliga emas, balki ijodkor muallif sifatida namoyon bo'lishi adresat nuqtai nazaridan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin jurnalistdan samimiy, jonli muloqotni kutadi. Jurnalist qiyofasida ijtimoiy axboriylik bilan shaxsiy ijodiylikning uyg'unlashuvi adresatni o'ziga ko'proq jalb etadi, muloqotga jonlilik, samimiylik, dilkashlik ruhini baxsh etadi¹.

“Hurriyat” mustaqil gazetasi o'zining alohida lisoniy xususiyatlariga ega. Gazetadagi materiallar mualliflari o'z jurnalistik pozitsiyasidan kelib chiqib maqolaga yangicha ruh, jonli til berishadi. “Hurriyat” gazetasida, asosan, yosh muxbirlar faoliyat olib borishadi. Yosh kardlar esa doim izlanishda, yangiliklar topishda faol bo'lishadi. Gazetaning sahifalari rang barangligi ham maqolalarning ta'sirliligi ham shundan.

“Hurriyat” da faoliyat yuritayotgan muxbirlar orasida ham tili ham uslubiy mahorati bilan ajralib turadigan, bir-biridan qiziqarli mavzularda chiqishlar qiladigan Setora Tojiddinova faoliyati alohida ahamiyatga ega. Uning maqolalarida ko'tarilgan masalalar, ilgari surilgan e'tiborli fikrlarning barchasi jamiyatda keng quloqch yoygan, hamma ham e'tibor bermaydigan holatlardir. Muallifning “Ota, ona ishlaydi, bola-chi?” (“Hurriyat” gazetasi 2013-yil 19-iyun), “Sog'inch”(2013-yil 28-avgust), “Faqat qadr uchun, faqat or uchun”(2013-yil, 29-may), “Ayollar huquqi va manfaati doimiy e'tiborda”(2013-yil, 5-iyun), “Aniq maqsadlar sari”(2013-yil,11-sentabr) kabi maqolalari orqali jamiyatdagi jarayonlarni baholaydi, ularga o'z shaxsiy, xolis munosabatini bildiradi. Setora Tojiddinova tilida jonli suhbat usuli yetakchilik qiladi. Muallif o'quvchini tasavvur qiladi va uning nutq jarayoniga munosabati (masalan, savoli)ni aks ettiradi. Nutq jarayonida u o'zini o'quvchi maqomida ham tasavvur qiladi va buni nutq tarkiblanishida aks ettira oladi. Muallif **“... ona va bola qo'l ushlashib, metro tomon oshiqayapti”** der ekan, darhol o'quvchi maqomiga o'tib va **“”nima bo'pti” deb o'ylayotgandirsiz?”** savolini o'rtaga tashlaydi hamda unga javob berishga

¹ Qarang: Toshaliyev I., .Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. T.: Zar qalam, 2006, 135-b.

kirishadi. Fikr ifodalashning dialoglashtirilgan bu andozasi o'quvchida matnga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Maqolalardagi **“esingizdami?”**, **“e'tibor bering”** kabi so'zlar o'quvchini sergakroq bo'lishga, uni muloqotga tortishga harakat qiladi.

Axborot uzatish jarayonida faol o'quvchi tasavvuri qancha kuchli bo'lsa, muloqotning ta'sirchanligi ham, samaradorligi ham shuncha kuchli bo'ladi. Shu bois ham sotsiolingvistik tadqiqotlarda ommaviy muloqot jarayonida shaxssiz, shaxsi umumlashtirilgan sof monologik nutqdan, o'ta kitobiy va rasmiy ifoda usulidan qochish zarurligi uqtiriladi, muallif shaxsi ifodalangan jonli, tabiiy, his-tuyg'uli ifoda yo'sinidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Nutq ahlidan muloqotda til va tafakkur qonuniyatlariga, nutqning lisoniy-uslubiy xususiyatlari hamda notiqlik san'ati qoidalari va mezonlariga muvofiq ish tutish talab qilinadi. Bu to'g'ri talab, lekin nihoyatda umumiy bo'lib, u ijtimoiy yo'naltirilgan dialogning, shaxslantirilgan, dialoglashtirilgan muloqotning ruhiy-lisoniy andoza va usullari haqidagi bilim va malakani ham o'z ichiga oladi.

“Hurriyat” gazetasida beriladigan har bir maqolada faol adresat maqomi sezilib turadi. Axborot uzatishdan jurnalistning maqsadi ochiq va oydin sezilib turadi. O'quvchiga muloqotning asosiy sababi va maqsadi, mazmun ko'lam va muammolari doirasi haqida ma'lumot beriladi. Muloqot maqsadini, motivini yaxshi anglagan o'quvchining axborotni suhbat ishtirokchisi sifatida e'tibor bilan faol qabul qilishi uchun ham, aloqa vaziyati yaratish uchun ham asos yaratiladi. Bu amal odatda rukn, sarlavha osti sharhlari va matn muqaddimasida turlicha usullarda bayon qilinadi. Masalan, “Jahon adabiyoti ijodxonasidan”, “Tarix zarvaraqlari”, “Mushtariy mushohadası”, “Diqqat, tanlov” kabi ruknlar va “Jurnalist so'zi – jamoatchilik e'tiborida” (2013-yil, 23-yanvar) nomli sarlavhaga berilgan “Respublika OAVda e'lon qilingan dolzarb mavzudagi tahliliy va tanqidiy materiallar xususida mulohazalar” qabilidagi sarlavha osti sharhi orqali yoki matn muqaddimasining “Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz “Hazrati Langar ota” deb nomlangan ziyoratgoh Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi qadimiy Langar qishlog'ida joylashgan...”¹ jumalari bilan boshlanishidan o'quvchi matn

¹ Sharopov Sh. Moziy so'qmoqlarida// “Hurriyat” gazetasi. 2013, 23-yanvar

haqida ilk tasavvurni oladi. Matn mavzuyi va bu mavzuning doirasi ham, uning ijtimoiy qiymati va ahamiyatini ta’kidlash va bunga o’quvchini ishonitirish amali ham, hatto axborotning kimga yo’naltirilganligi ham shularda bayon qilinadi. Bu jihatlar axborot uzatish jarayonigacha jurnalistning o’zi uchun, muloqotni rejalashtirish va uyushtirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Muloqotning hamkorlik, hamjihatlik tamoyili, o’quvchi bilan samimiy nutqiy aloqa bog’lash, baqamti suhbat vaziyatini yaratish, muloqotni shaxslantirish, dialoglashtirish zarurligi ham jurnalist ijodiy laboratoriyasiga daxldor nuqtalardir. “Hurriyat” gazetasini varaqlay turib bir maqoladagi “Kechki soat 10 larda 4-qavat derazasidan pastga qarasam, 10qavatdagi qo’shnim yo’laklarga suv sepish bilan ovvora.... Xullas, tungi soat 24:00 gacha suvning sharillashi tinmadi. Bu misolni keltirishimdan murod shuki, ayrim kishilarimizning nazdida suv go’yo tuganmas xazina...”¹ satrlarida muallifni o’quvchi bilan bevosita suhbatlashoyotgandek tasavvur qildik. Muallif bayonida auditoriyaning tabiatidan kelib chiqib axborotni to’g’ri tushunish uchun zarur amallar, xususan, keltirgan misollarini izohlashi, qo’llash sababini tushuntirishga urinishi o’quvchi bilan samimiy nutqiy aloqa yaratganligini ifodalaydi.

Bayon qilinayotgan axboriy, fikriy yangiliklarning izchil va oshkora bayonida fikr-mulohazalarni tasdiqlash, ma’qullash yoki rad etish, faktlarni ijtimoiy- ma’naviy qadriyatlar sifatida baholab borish muloqotga hamkorlik ruhinigina emas, oshkora bahs-munozara kayfiyatini ham baxsh etadi. “Hurriyat”ning 2013-yil 11-sentabr sonida “Xalqimizda “Bolaligim - poshsholigim” degan naql bor. Darhaqiqat, bolalik inson umrining eng shirin, tashvishlardan xoli, eng baxtli davri ”². Bu yerda muallif bayonda oldingi fikrni ma’qullagan bo’lsa, boshqa bir maqolada “Vaqt haqida gap ketganda ayrimlar “... bu ayollarga unchalik ham tegishli emas”, deyishadi. Aslida esa bu qarash noto’g’ri. Fransuz olimlarining ma’lumotlariga qaraganda, ikki bolali ayol har kuni

¹ Muhammadiyev B. Bir tomchi hayot//”Hurriyat” gazetasi. 2013, 14-avgust

² Ahmatxonov V. Haqiqiy poshsholik// “Hurriyat” gazetasi. 2013, 11-sentabr

10 soatgacha tinim bilmas ekan...”¹. Bu yerda esa oldingi fikrni rad etish orqali muallif o'z fikrini isbotlashga intiladi. Bu holatlar matnga baxs- munozara kayfiyatini baxsh etadi.

Gazeta tili uchun o'ta kitobiylik ham, o'ta ilmiylik ham harakterli emas. Gazeta uchun ilmiy matnlar ommabop qilib qayta ishlanadi. Aks holda ularning gazeta uslubining umumiy stilistik ohangiga zidligi sezilib qoladi. “Hurriyat” gazetasida e'lon qilinayotgan ilmiy maqolalar tilida ommaboplik xususiyati yetakchilik qiladi. Masalan: “Hurriyat”ning 2013-yil 11-sentabr sonidagi muxbir Mohira Otaboyevaning “Internet tizimida jurnalistik janrlar” nomli maqolasi ilmiy maqola hisoblanadi. Lekin unda faqat ilmiylikkina emas, balki oddiy, hamma uchun tushunarli bo'lgan til o'z aksini topgan. Muallif “blog”lar haqida gapirar ekan, quruq kitobiy ma'lumot bilan cheklanib qolmagan. “Odamlar odatda o'zlarini qiziqtirgan va o'zlariga aloqador bo'lgan narsalar haqida yozishadi. Odatiy yangiliklardan farqli o'laroq, blog ularga shunday suhbat imkoniyatini yaratadi. Blog vaqt bilan bog'liq bo'lgani uchun doim yangilab turiladi. Shaxsiy bo'lgani bois yangiliklarga subyektiv nuqtai nazardan yondashiladi”. Ilmiy ifoda shaklining bu usulida faqat soha vakillariga emas, boshqa kasbdagilar ham ma'lumotni aniq tushunishlariga yordam beradi.

Ilmiy- ommabop maqolalar asosan aniq bilimlar asosida yoki fanning biror konkret sohasidagi masalalarga bag'ishlanadi. Unda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar, tashabbuslarning ilg'or g'oyalar mohiyatini ochib berish orqali uning jamiyat va odamlarga avzallik tomonlari targ'ib qilinadi.

Ilmiy- ommabop maqolaning asosiy belgisi qat'iy fikrni, ya'ni ma'lum voqelik atrofida shakllangan qat'i fikrni, aniq yo'nalishda rivojlanishi, muallifning sharhlar va izohlar tizimiga munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi. Va shu jihatdan ilmiy-ommabop maqolalar publitsistikada tahliliy janrlar ichida muhim o'rin egallaydi. Bu eng murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan janrlar turiga kiradi.

¹ Tohiriy A. Vaqt – bebaho ne'mat// “Hurriyat” gazetasi. 2013, 11-sentabr

Maqolalarning bir-biriga bog'lovchi va yo'nalishda esa belgilovchi jihati unda tashviqot xususiyatining mavjudligidir. Shuning uchun ayniqsa, ilmiy-ommabop yoki diniy-ma'rifiy usulda bo'ladimi, bu maqolalar ustida uzoq ishlashga to'g'ri keladi. Ba'zan uni oylab kutish mumkin.

Ilmiy- ommabop matn yaratishda muallif yaratayotgan sohani yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va uni ifodalashda tildan to'g'ri foydalana olishi darkor. Bu esa o'z- o'zidan muallifning so'z boyligi keng va til materiallarini o'z o'rnida ishlata olish mahoratiga ega bo'lishini talab etadi.

“Hurriyat” gazetasida ilmiy- ommabop materiallarga keng o'rin ajratiladi va yoritilayotgan mavzu muallif tomonidan chuqur o'rganiladi. Masalan, “Jamoatchilik aloqalarini boshqarish vositalari” nomli maqola muallifi jurnalistika sohasiga oid va juda kerakli bo'lgan “Press reliz” haqida ma'lumot beradi. Maqoladan muallifning ushbu atama mohiyatini juda yaxshi bilishi, unga ko'p duch kelganligi va u haqda anchagina qo'shimcha ma'lumotlarga egaligi sezilib turadi. Boshqalarga tushunarli bo'lishi uchun izohlovchi so'zlardan ham foydalangan. “Anjumanga kelgan OAV xodimlari, shu joyning o'zidayoq qo'lidagi ixcham, aniq va lo'nda axborot bilan tezda tanishib oladilar. Qo'shimcha ma'lumotlar zarur bo'lsa, axborot xizmati xodimidan so'raydilar. Shundan so'ng boshqa “texnik ishlar”ga bafurja kirishishlari mumkin”¹.

Maqola yozishda fakt birinchi o'rinda turadi. Faktlarning umumiy yig'indisiga asoslanib, muallif fikri o'z tasdig'ini topishi kerak. Ya'ni muallif aytmoqchi bo'lgan fikr faktlar asosida ifodalanmog'i kerak. Ular esa muallifning to'g'ri mulohazalari va qarashlarini beradi. Muallifning qarashlaridagi tizim voqelikni kuzatishlari orqali isbotlanadi.

Fakt maqolada haqiqiy va ishonarli bo'lishi kerak, aks xolda u maqolaning xulosalariga mos kelmasligi yoki jurnalist chiqargan xulosalar bilan qarama-qarshi bo'lib qolishi mumkin. Faktlar bilan ishlashda ularning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashda muallifning o'z pozitsiyasi, tutgan yo'li bo'lishi kerak.

¹ B.Alimov. Jamoatchilik aloqalarini boshqarish vositalari// “Hurriyat”gazetasi. 2013. 12-iyun

Fikrning asta-sekin rivojlana borishi, uning fakt va dalillar hisobiga to'liqlashgani sari maqolaning muallifi o'quvchini xulosa qilishga undaydi.

“Hurriyat” gazetasidagi asosiy maqolalarda faktga tayanish ustun turadi. Muallif asosiy fikrini faktlar orqali ifodalaydi. Gazetada e'lon qilingan “Fuqarolarning murojaatlari: Qonunchilik va amaliyot” maqolasida Prezidentimiz Farmoyishlari bilan qabul qilingan “Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonunning Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi ijrosini nazorat- tahlil tartibida o'rganib chiqish va uning natijalari, davlat hokimiyati organlariga fuqarolarning to'g'ridan to'g'ri yoki elektron murojaatlari, haqida so'z boradi. Ushbu maqolada yuqorida keltirilganidek muallif asosiy fikrini faktlar yordamida ifodalaydi. Faktida keltirilishicha “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi asosida endilikda viloyatning 13 ta shahar hamda tumanlari, 78 ta boshqarma va idoralarida veb-saytlar ochilib, ularda “fuqarolar murojaatlari” rukni tashkil etilmoqda...”, “Kasaba uyushmalari Samarqand viloyat hududiy boshqarmasiga 2012-yilda 1241ta murojaat tushgan, shundan 1056tasi ijobiy hal qilingan, 185 tasi asossiz deb topilgan...”¹. bu va shu kabi boshqa faktik materiallar maqolaning salmog'ini yanada oshiradi, Tabiat tilsimlari rukni ostida nashr etilgan muallif Akmal Soatovning “Tokning mevasi ham, bargi ham shifo” sarlavhali maqolasida Tokning shifobaxsh xususiyatlari, qaysi kasalliklarda foyda berishi, tok ustida olib borilgan ilmiy izlanishlarni qalamga oladi. “Ibn Sino buyrak, qovuq yallig'lanishida, ichak og'rig'ida, uzum mevasini, ko'z, quloq kasalliklarida poyasining kulini ishlatgan. Kuzda tok kesilganda oqib chiqadigan suvi, ya'ni tokning ko'z yoshi buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi”, deb takidlab o'tiladi. Muallif keltirgan bu ma'lumotlar ham faktlardan tarkib topgan bo'lib, ulardan maqolada o'z o'rnida va unumli foydalanilgan. Shuni unutmaslik kerakki, faktlar, hodisalar, voqealarni ifoda etuvchi nutq vositalarini tanlash gazeta tilining ijtimoiy, individual emasligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Gazeta tilidagi so'zning ijtimoiy qimmati nutq egasining nuqtai nazari bilan belgilanadi. Chunki u faqat muallifgagina tegishli bo'lmay, tahririyatga ham

¹ Eshmurodov A. Fuqarolarning murojaatlari: Qonunchilik va amaliyot// “Hurriyat” gazetasi. 2013, 11-sentabr

tegishli, shuningdek, ijtimoiy guruh, tashkilot, partiyaga, gazeta kimning fikri, kimning siyosatini ifoda etsa o'shanga ham taalluqlidir. Gazetadagi har bir so'z jamoa (tahririyat, partiya, uyushma va h)ning obro'yi bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Gazetada so'zning kuchi, keskinligining sabablaridan biri shunda ekanligini tahrir vaqtida hisobga olish lozim. "Hurriyat"da har bir so'zga alohida e'tibor beriladi. Chunki materiallardagi har bir so'z avvalo, butun gazetaning, qolaversa barcha jurnalistlarning obro'yi bilan bog'liqdir. Shuni chuqur his etgan muharrirlar tahririyarga tashqaridan kelgan har bir materialni sinchiklab tahrir qilishadi, undagi so'zlarning ma'nolariga alohida e'tibor bilan qarashadi.

Gazeta tilining o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning andozaviyligidir. Gazeta nutqining bu xususiyati u paydo bo'lgandan boshlab to shu kungacha so'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunga sabab til grammatika vositalarini tanlash qat'iy belgilanganligi. Bundan tashqari, gazeta uchun belgilangan ijtimoiy- madaniy sharoitning o'ziga xosligi (maksimal miqdordagi o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallanganligi, shuningdek, til muhitining betarafligi, ya'ni uslublar bo'yicha malakasi nihoyatda turlicha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanganligi). Ammo andozaviylik istisno tarzida qotib qolgan gazeta tilining o'ziga xos jihati, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi. Muharrir tahrir jarayonida bu holga ijodiy yondashuvga talab etiladi. Aslida nutqiy faoliyatining barcha sohasi andozalangan hisoblanadi. Lekin, shu bilan birga, nutqning andozaviyligi tabiiy mavjud va takomillashuvchi jarayon. Bundan maqsad lo'nda muloqiy-oqilona tayyor nutq formulasini aloqaning turli sohalari va maqsadlari uchun tayyorlashdan iboratdir. Aslida adabiy tilning moslashuvchanligi , ishchanligi ko'p jihatdan uning andozalanganlik darajasiga, turli vaziyat, maqsad va boshqalar uchun nutqiy qolip (klishe)lar (andoza, formula)ning ko'p-ozligiga bog'liqdir. Yuqorida qayd etilgan nutqiy shakllarning bo'lmasligi muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, til egalarini muayyan muloqot sharoiti uchun yangidan yangi nutqiy konstruksiyalar, formulalar yaratishga majbur qiladi, o'z navbatida , nutqiy janrlar ishlanmaganligini anglatadi. Gazeta nutqida rasmiy uslubga xos so'z va o'ramlar ham qo'llanadi. Bu unsurlarning ishlatilishi ko'pincha sun'iy ifodalar, shablon vositalar sifatida

baholanadi ham. Ammo bu fikrga muayyan janrlar tabiatidan kelib chiqib yondashish lozim. O'z navbatida, matbuotda rasmiy axborotlarning tez-tez berib borilishini ham unutmaslik kerak.

“Hurriyat” gazetasida ham andozalashgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Ular ko'proq rasmiy xabarlarda uchraydi. Masalan, **tashkil etildi, e'lon qilindi, qabul qildi, so'zga chiqdi, ishtirok etdi, ma'ruza qildi, masalalar ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, natijalar tahlil etildi, ma'lumotlar tinglandi, bo'lib o'tdi, uyushtirildi, havola etildi, fikr almashishdi**. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gazetalaridagi qolipga aylanib qolgan konstruksiyalar, formulalar ijobiy yoki salbiy baholovchidir.

Gazeta tiliga quruq rasmiylik, siyosiy (partiyaviy)likdan tashqari, emotsionallik ham hosdir. Emotsionallik, tabiiy matn ta'sirchanligi yodda qolarililigini ta'minlaydi. Asar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ilmiy bo'lsin, baribir qaysidir darajada emotsionallikka ham ega bo'lishi lozim. Chunki tilning emotsionalligi, baholash xususiyati publitsistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab publitsisning tabiati, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi. “Hurriyat” gazetasida ham emotsionallikka katta e'tibor qaratiladi. Gazetada e'lon qilinayotgan ocherk, badia, esse, feleton, hajviyalarning ta'sir kuchi ko'proq yuqori bo'ladi. 2013-yil 3-apreldagi Abdurahim Nazarovning “Olimning ori bo'lsin” feletoni, “Bir tomchi hayot” maqolasi (Bobur Muhammadiyev 2013-yil 14-avgust), “Ajdah afsonasi yoxud sopolda qotgan qo'shiq” badiyasi (Muhammadb Ochil 2013-yil 31-iyul), “Sariq matbuot tafakkurni sirroz qiladi” maqolasi (Mukarram Otamurodova 2013-yil 27- fevral) kabi materiallar emotsionalligi yuqori bo'lgan materiallardan hisoblanadi.

“Dunyoda nima gap?” sahifasida doimiy berib boriladigan xalqaro sharhlar ham yuqori emotsionallikka ega. “Matbuot qurol emas, taraqqiyot vositasi” (A.Saybnazarov 2013-yil 28-iyun) “Misr: xatolar ko'lankasi kengaymoqda” (A.Saybnazarov 2013-yil 3-iyul), “Narkovaziyat: muammo va yechimlar” (T. Matibayev 2013-yil 31-iyul), “Tinch va notinch dunyo bolalari” (A. Abdulboqiyev 2013-yil 29-may), “Yevropa Ittifoqi: iqtisodiy tanglikning oxiri bormi”

(A.Saybnazarov 2013-yil 10-aprel), “Havoga sovurilayotgan salomatlik” (A.Saybnazarov 2013-yil 5-iyun) kabi bir biridan qiziqarli sharhlar o’quvchini ta’sirlantirib, u haqda o’ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Ularda ko’tarilayotgan mavzular dunyoviy ahamiyatga ega bo’lib, hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Xususan, “Ayniqsa, shu kunlarda Afrika va Osiyoning ayrim mamlakatlarida avj olgan ichki harbiy to’qnashuvlarni ko’z oldimizga keltirsak, avvalo go’daklar taqdirini izdan chiqarayotdan dahshakti va ayanchli ahvol ko’z oldimizga kelaveradi. 2-jahon urushi yakunlanganidan so’ng 150 dan ortiq mahalliy, etnik nizolar, keng miqyosdagi mojarolar yuz berdi. Bu janglarda 8-9 yoshli bolalarning ham jalb etilganligi keng jamoatchilikning haqli e’tiroziga sabab bo’lyapti. Ma’lumotlardan so’ngi 10yil ichida 300 mingga yaqin bolalar qurolli to’qnashuvlarda qatnashgani ma’lum. Bolalarni urushga jalb etayotgan mamlakatlar sifatida Afg’oniston, Birma, Kolumbiya, Burundi, Kongo, Liberiya, Somali, Sudan, Chad singari davlatlarning nomlari alohida tilga olinadi...”¹ jumllalarini o’qib bolajon o’zbek xalqining qalbidan nimalar kechishini tasavvur eting. Bu va boshqa sharhlarda ham insonni larzaga soladigan, befarqlikdan xalos etadigan so’zlarni uchratamiz.

“Hurriyat” gazetasi tilida maqol va iboralardan ham unumli foydalaniladi. Masalan: **“Och boladan qoch bola”, “tekin pishloq”, “Qulday ishla, bekday yasha”, “Taka bo’lsa ham sut bersin”, “ Qovun qovundan rang oladi”, “Guruch kurmaksiz bo’lmaydi”, “Yettinchi osmonda uchmoq”, “Erli uyim – nurli uyim”, “Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi”** kabi xalq maqollari va iboralari maqolalarga yanada zeb beradi. Shu bilan birga fikrni ifoda etishni, o’quvchiga yetkazishni osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda “Hurriyat” gazetasi tilida gazeta tili qanday bo’lishi kerak bo’lsa, shunday xususiyatlar mavjud va gazeta tili qanday xususiyatlardan holi bo’lishi kerak bo’lsa ulardan yiroqdir. “Hurriyat” o’zbek tilida nashr qilinadigan, o’zbek o’quvchisi, umuman, o’zbek auditoriyasi uchun mo’ljallangan bo’lib, gazeta qatlarida mag’zi to’q, millatning badiiy-estetik saviya-darajasini

¹ Abdulboqiyev A. Tinch va notinch dunyo bolalari// “Hurriyat” gazetasi. 2013. 29-may

o'zlashtirishga qodir asarlar ko'proq chop etiladi. E'tibor qilinsa, gazeta sahifalaridagi eng sara materiallar maqolalar bo'lib chiqadi. Gazeta o'z auditoriyasini konrket o'rganib, so'ngra, ularning saviya-darajasiga monand materiallarni davomli va muntazam reja asosida e'lon qilib boryapti. Gazeta materiallarining barchasidan o'zgacha uslub, erkin til, bevosita suhbat nafasi ufurib turadi.

XULOSA

Omma bilan adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilgan holda muloqotga kirishuvchi gazeta tili matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq. Gazeta tamoyillarini faqat mazmuni, yo'nalishi, matbuot faoliyatining tavsifi, uning faktlar, jamiyat hayotidagi hodisalar, siyosat va hokazolarni baholashgina emas, balki publitsistik shakllarning o'ziga xos mohiyati, avvalo, gazeta- publitsistikaning tili va uslubini ham belgilaydi.

Gazeta sahifasidagi umumiy shior, shapka-sarlavhalar ham sahifadagi materiallar mazmuniga ishora qiladi, gazeta matnlarining umumiy mavzuyi va mazmuni haqida umumiy ma'lumotni ifodalaydi. Rasmiy siyosiy matnlarga sarlavhaning shapka, shior shaklida qo'yilishi hollari materialning muhimligini, dolzarbligini ta'kidlaydi.

Rukn-sarlavha esa bir nechta axborotning mavzu va mazmun umumiyliги xususida ma'lumot beradi. Gazeta sahifasidagi shapka va ruknlar mohiyat e'tibori bilan sahifadagi materiallarni umumlashtirish va guruhlariga ajratish orqali sahifa mazmuni haqida ham ma'lum tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ommaviy muloqot uslubiga xos yana bir xususiyat fikr ifodalashda (axborot berish - yangilik hamda uni talqin etish - baholash) nutqni umumlashtirish va xususiylashtirish -shaxslantirish omilining mavjudligidir.

Ommaviy muloqot uslubining mavzu ko'lami nihoyatda keng, ko'lami cheksiz. U ijtimoiy hayotning barcha sohalarini ham barcha ijtimoiy toifalarini ham qamrab oladi. Bu omil turli sohaga oid ommabop so'z va atamalarning, turli uslub unsurlarining qo'llanishini, matn qurilishidagi uslubiy aralashish esa o'ziga xos betaraf lug'at mulkini qaror toptiradi. Ommaviy muloqot uslubining o'ziga xosligi, eng avvalo, uning nutqiy tarkiblanishida, matniy qurilishida, shuningdek, axborotni berish usuli va mavzuni yoritish tarzida ko'rinadi. Bu uning asosiy mazmuni tabiatidan, ijtimoiy maqsadidan kelib chiqadi. Ommaviy muloqot uslubi gazeta va jurnal nutqini ham, radio va telenutqni ham o'z ichiga oladi hamda ularga xos umumiy lisoniy-uslubiy sifatlar asosida tavsiflanadi. Zero, ommaviy muloqot gazeta-jurnal, radio va televideniye bilan birgalikda axborot uzatishning

bir butun tizimini tashkil etadi. Matbuot, radio va televideniye o'ziga xos xususiyatlar, bir-biridan farqli jihatlar bilan tavsiflanuvchi yaxlit ommaviy muloqot tizimining ichki turlari, ommaviy muloqot uslubining ichki ko'rinishlari sanaladi.

Gazetada asosan ijtimoiy qimmatli ommaboplik xususiyatiga ega va shu bilan birga publitsistik- emotsional kuchga ega nutq vositalarini yo'qotmagan nutq vositalaridan foydalaniladi. Lekin muallif ham, muharrir ham shuni yodida saqlashi kerakki, gazeta faqat ijtimoiy qimmatga ega nutq vositalaridan foydalanibgina qolmay, balki shundaylarni o'zi ham "ixtiro" qiladi.

"Hurriyat" mustaqil gazetasining ilk sonlaridanoq mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratilgan maqolalar chop etila boshlandi. O'sha yillar Xurshid Do'stmuhammad, Ahmadjon Meliboyev, Ne'mat Rafiqov, Abduqayum Yo'ldoshev, Gulchehra Umarova, Ahmad Otoboyev, Rahmon Qo'chqor, Amirqul Karimov, Xayrulla Umarov, Tursunali Akbarov, Zohidjon Haydarov, Abdukarim Rahimberdiyev, Mahmud Abulfayz, Hamidulla Akbarov, To'lqin Eshbekov kabi jurnalistlarning jamiyatning turli masalalariga bag'ishlangan bir qator maqolalari e'lon qilib borilgan.

1996-1997 yilgi ilk sonlarini kuzatganimizda aksariyat materiallarning tanqidiy ruhda ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'z ona tilimizda so'zlashish masalalari, mansabini suiste'mol qilgan shaxslar kirdikorlarini fosh etish muammolari tanqidiy maqolalarning bosh mavzuiga aylangan. Masalan, muallif Zarafshon Qalandarovning "Kotibangiz o'zbekcha gapiradimi?", Baxtiyor Shohnazarovning "Fuqaro emas vatandosh", Safar Ostonovning "Iste'foga chiqish bilan dog'ni yuvib bo'lmaydi", Xurshid Do'stmuhammadning "Illat" kabi tanqidiy maqolalari yuqorida keltirilgan mavzulardagi materiallarga misol bo'la oladi. O'sha paytlarda barcha gazetalar ichida charaqlab chiqqan "Hurriyat" gazetasi tanqidiy materyallar yozishni o'z uslubiga aylantirgan deyish mumkin, gazeta sahifalarining nomlanmaganligi, sahifa nomlari o'rniga gazeta nomi yozilishi, maqolalar mualliflari matnning oxirida emas, boshida yozilganligi ham gazetaning

o'ziga xos uslubini belgilagan edi. Gazetaga rahbarlik qilgan har bir muharrirning ham o'ziga xos uslubi bo'lib, bu davrlarda turli xil rang barang materiallar o'quvchilarga taqdim etilgan. Xurshid Do'stmuhammad, Amirqul Karim, Ismat Xudoyorov, Abdusalom Jumayev, Zafar Saidov, bugungi kunda O'ktam Mirzayorov kabi kuyunchak muharrirlar "Hurriyat" mustaqil gazetasining tashkil etilgandan to hozirgacha bo'lgan rahbarlaridir.

"Hurriyat" gazetasi biror bir tashkilot yoki partiya hayotiga oid materiallarni yozish bilan cheklanib qolmagan. U mustaqil gazeta bo'lib, cheklanmagan doiradagi auditoriyaning xohish-istagidagi, barcha sohalarga taalluqli bo'lgan materiallarni berib boradi. Bu ham gazetaning alohida uslubga ega ekanligini belgilaydi.

Bugungi kunda ham ushbu gazeta o'z o'quvchilariga ega va boshqa gazetalardan farq qiladigan uslubi mavjud. Gazeta 8 sahifadan iborat bo'lib, "Vatan siyrati", "Jarayon", "To'rtinchi hokimiya", "Dunyoda nima gap?", "Qadriyatlarimiz", "Ko'ngil gulshani", "Nigoh" kabi nomlar bilan ataladi. Bu nomlar o'zgarmas sahifa nomlaridir. Bundan tashqari "Tabriklar", "Reklama" kabi o'zgaruvchan sahifalarga ega.

"Hurriyat" mustaqil gazetasida barcha janrdagi materiallar uchraydi. Xabar, maqola, intervyu, sharx, ocherk, esse, feleton va badialar shular jumlasidandir. "Chamandagi "shumg'iyalar" feleton (Muallif Abdulla Sobirov 2012-yil 1-avgust), "Hayol kemasida kezar yolg'iz oy" esse (Muallif Fozil Jabborov 2013-yil 13-yanvar), "Chinakam ziyoli edi" ocherk (Muallif 2013-yil 22-may) "Hurriyat" Jurnalistlar ijodiy uyushmasi muassisligida chop etiladigan gazeta bo'lganligi sababli ham undagi ijodiy guruh zimmasiga ulkan mas'uliyatni olgan holda astoydil mehnat qilishadi. Ular yozgan materiallar qaysi janrda bo'lmasin jurnalistlarga namuna bo'ladigan, ma'lum ma'noda ularga maktab bo'ladigan salohiyatga ega. Gazetada keyingi yillarda vaqti-vaqti bilan adabiy tarjima asarlar, jumladan, suhbatlar, adiblarning maktublari va kundaliklaridan parchalar ham berib borilyapti. Umuman olganda yozuvchi va shoirlarning ma'naviy olamini ko'rsatishga

harakat qilinyapti. Bu kabi uslubiy o'ziga xoslik uni boshqa ijtimoiy- siyosiy gazetalaridan ajratib turadi. "Hurriyat" ning 2013-yil 27-fevral sonida e'lon qilingan muxbir Fozil Jabborovning "Shukur Xolmirzayev kundaligidan", gazetaning 31-iyul sonidagi muxbir Akmal Jumamurodovning "Tuyg'ular tajassumi" (Narimon Latipov kundaligidan) nomli materiallari aynan shu mavzudagi maqolalardir.

"Hurriyat"da sarlavha qo'yish mahorati bu - alohida mavzu. Ixcham, ohorli, ayni bir paytda, yuqorida qayd qilganimizdek, biroz g'alati, noan'anaviy sarlavhalar kishi qalbiga dildorlik bilan yo'l topib, ruhini ajib sirli-sehrli hislarga oshno etadi: "Hayotga maftun, navoga oshiq" (Muallif Shodmonqul Salom, 2013-yil 27-noyabr), "Ota o'gitini unutgan odam"(Muallif Abdujalol Taypatov, 2013 yil 18-sentabr, 39 son), "Avvalo fidoiy inson bo'l"(Muallif Halim Sayid, 2013 yil 2- oktabr, 41son), "Insoniylikni kim o'rgatadi" (Muallif Oybuvi Ochilova, 2012 yil 13-iyun), "Darz ketgan odamlar" (Muallif Saida Sayxun, 2012-yil 11-iyul), umuman, gazeta sahifalaridagi har bir maqolaning nomlanishida qandaydir ohanrabo bor. Bu sarlavhalarni o'qigan o'quvchi albatta maqolani ham o'qib chiqishi aniq.

Shu bilan birga gazetada ayrim xatoliklarga ham yo'l qo'yilayotganligini ham aytib o'tish lozim. Masalan, 2012-yil 1-fevral sonidagi muxbir Inomjon Abdiyevning "Seriallar ortidagi illat" sarlavhali mulohazali maqolasida shunday deyilgan: "... Seriallar sevib tomosha qilinadigan san'at turlaridan biridir..."¹. Bu yerda uslubiy xatolikka yo'l qo'yilgan. Chunki kino san'at turi bo'la oladi. Lekin serial san'at turi bo'lishi mumkin emas. Bunday xatolikka yo'l qo'yish birinchi navbatda muallifning xatosi bo'lsa, ikkinchidan bu muharrirning ham, qolaversa, gazetaning shu sonidagi navbatchi mas'ul shaxsning ham xatosi sanaladi. Bu kabi xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun gazeta xodimlaridan e'tiborli bo'lish talab etiladi. Yana shuni ta'kidlab o'tmoqchi edikki, gazetaning dizayniga ham alohida e'tibor berishsa maqul bo'lardi, matn joylashtirish shakliga noodatiy tus berishsa, qisqa matnda keng axborot ifodalashga erishilsa yanada maqsadga muvofiq bo'lar

¹ Abdiyev I. Seriallar ortidagi illat// "Hurriyat" gazetasi, 2012, 1-fevral

edi. Bundan tashqari gazetaning oxirgi sahifasida “Kelgusi sonda” rukni ostida gazetaning keyingi sonida ketadigan maqolalarni qisqacha anona shaklida berilsa, bu ham gazetaning keyingi soniga bo’lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda "Hurriyat" gazetasining o'quvchilari soni kun sayib o'sib bormoqda. Gazetaning o'quvchilari ko'payayotganini tahririyatga kelayotgan aks-sadolardan ham bilib olsa bo'ladi. Ayniqsa, jamiyatdagi turli masalalarga bag'ishlangan materiallarni o'qib, mulohaza yuritayotgan gazetxonlarimizning soni kundan-kunga ortmoqda. Hozirda mamlakatimizda nashr etilayotgan ko'plab mustaqil bosma nashrlar ichida "Hurriyat" faol, o'z o'rni va ta'sir kuchiga ega bo'lgan gazetadir. U hajmi, dizayni maqolarning mazmuni va jurnalistik mahorat masalasida matbuotimiz tarixidagi o'ziga xos to'lqinning mantiqiy davomi o'laroq paydo bo'lgan, "Hurriyat" nisbatan yosh va xali-hanuz shakllanish bosqichini kechirayotgan gazeta. Shu bois, u haqidagi pishiq-puxta, salmoqli tadqiqot-maqola, yoinki, biron risola, kitob yo'q. "Hurriyat" mustaqil gazetasining tashkil etilganidan to bugungacha bo'lgan faoliyati tom-tom kitob bo'lishga loyiqdir.

“Hurriyat” gazetasi tilida gazeta tili qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday xususiyatlar mavjud va gazeta tili qanday xususiyatlardan holi bo'lishi kerak bo'lsa ulardan yiroqdir. “Hurriyat” o'zbek tilida nashr qilinadigan, o'zbek o'quvchisi, umuman, o'zbek auditoriyasi uchun mo'lajallangan bo'lib, gazeta qatlarida mag'zi to'q, millatning badiiy-estetik saviya-darajasini o'stirishga qodir asarlar ko'proq chop etiladi. E'tibor qilinsa, gazeta sahifalaridagi eng sara materiallar maqolalar bo'lib chiqadi. Gazeta o'z auditoriyasini konrket o'rganib, so'ngra, ularning saviya-darajasiga monand materiallarni davomli va muntazam reja asosida e'lon qilib boryapti. Gazeta materiallarining barchasidan o'zgacha uslub, erkin til, bevosita suhbat nafasi ufurib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

- I.1.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2012, 98-b.
- I.2.** O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonuni// to'rtinchi hokimiyat – T.:O'zbekiston, 1998, 60-73-b
- I.3.** O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasida Ommaviy axborot vositalarining faoliyatini muvofiqlashtirishga doir qonunlar. – T.: 1998, 63-73-b
- I.4.** O'zbekiston Respublikasining “Noshirlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyatini muvofiqlashtirishga doir qonunlar –T.: 1998, 49-53-b

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I.A.KARIMOV

NUTQLARI VA ASARLARI

- II.1.** Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishkonsepsiyasi. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010, 13-noyabr.
- II.2.** Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // Xalq so'zi. 2011, 28-iyun
- II.3.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.A. Farmoni. “Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”. –T.: O'zbekiston 2010.
- II.4.** Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010, 80-b.

II.5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:O'zbekiston, 2008, 175-b.

II.6. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 2007, 48-b.

III. MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR

III.1. Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. –T.: Zar qalam, 2006, 69- 97-b.

III.2. Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. –T: Tafakkur bo'stoni, 2012, 237-b.

III.3. Toshaliyev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. –T.: Universitet, 1999, 157-b.

III.4. Tohirov Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. –T.: Universitet, 2006, 48-b.

III.5. Tohirov Z.T. Pragmatik sema. –T.: Zar qalam, 2004.

III.6. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. –T.: Tafakkur, 2010, 33-b.

III.7. Mirtojdiyev M., Tohirov Z.T. So'z ma'nosining bo'yog'i. –T.: O'zbekiston, 1985, 32-b.

III.8. Oliy Jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari mavzuida II ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.:G'afur G'ulom, 2013, 121-b.

III.9. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. –T.: Universitet, 2007, 37-b.

III.10. Sulaymonov I. Men – jurnalistman. –T.: Sharq, 2007, 19-b.

III.11. Sharofiddinov O. Xarakter- badiiylik mezoni. –T.: G'afur G'ulom, 1989, 210-b.

III.12. Karimov I.A. Adabiyot yashasa – millat yashar. –T.: O'zbekiston, 1994. 157-b.

III.13. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994, 145-b.

III.14. Adabiy turlar va janrlar. I jild. –T.: Ma'naviyat, 2000, 218-b.

III.15. “Hurriyat” gazetasining 2012- 2013-yillar sonlari

IV INTERNET SAYTLAR

1. www.gov.uz
2. www.uzhurriyat.uz
3. www.ziyonet.com